

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIM VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI

“O‘zbek tilshunosligi” kafedrası

5141100 - o‘zbek tili va adabiyoti bakalavr
ta’lim yo‘nalishi bitiruvchisi

ESHONOVA NARGIZA MAHMUDJONOVNANING
« 5-SINF O‘QUVCHILARINI IFODALI O‘QISHGA O‘RGATISH»
mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

f. f.d., prof. Yu.M.Ibragimov

Nukus-2014

Malakaviy bitiruv ishi O'zbek tilshunosligi kafedrasining 2014 yil «___»_____ yig'ilishining ___ -sonli bayonnomasi bilan himoyaga tavsiya qilinadi

Fakultet dekani: f.f.n., dots. G. Qurboniyozov

Kafedra mudiri: f.f.n. M. Xudayarova

Ilmiy rahbar: f.f.d.prof Yu.M.Ibragimov

Eshonova Nargiza Mahmudjonovnaning «5-SINF O'QUVCHILARINI IFODALI O'QISHGA O'RGATISH» mavzusidagi bitiruv-malakaviy ishiga Davlat attestatsiyasi komissiyasi qarori bilan « » () bahosi qo'yilsin.

DAK kotibi: _____

«___»_____ 2014 yil

MAVZU: «5-sinf o‘quvchilarini ifodali o‘qishga o‘rgatish»

REJA:

KIRISH

BIRINCHI BOB

Beshinchi sinfda ifodali o‘qishga o‘rgatishning nazariy hamda amaliy ahamiyati

- 1.1. Ifodali o‘qish tarixidan lavhalar
- 1.2. Fonetik akustika va uning ko‘rinishlari

IKKINCHI BOB

Badiiy asar turlarini ifodali o‘qish

- 2.1. Masalni ifodali o‘qish
- 2.2. Nasriy asarlarni ifodali o‘qish
- 2.3. Ertaklarni ifodali o‘qish
- 2.4. Hikoyalarni ifodali o‘qish

UCHINCHI BOB

Beshinchi sinfda o‘quvchilarni ifodali o‘qishga o‘rgatishda sinfdan tashqari ishlarning o‘rni

- 3.1. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlarning turlari

X U L O S A

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

K I R I Sh

Mavzuning dolzarbligi shundaki, o'zbek badiiy so'z ijrochilari san'atining sarchashmalari tarixning juda uzoq qatlamlariga borib taqaladi. O'rta Osiyo xalqlari pedagogikasi tarixida ifodali o'qish san'atiga bo'lgan e'tbor aloqida mavqe kasb etadi. Bola dunyoni so'z bilan qabul qiladi. Dunyoga so'z orqali kirib boradi. Bu davrda quyidagi bosh omil bola yoki o'quvchining so'z boyligini oshrishga va ifodali o'qish ko'nikmasini takomillashtirishga ijobiy ta'sir etish mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. O'quvchilarni ifodali o'qish san'atining mohiyati va hayotga estetik munosabatda bo'lish hissini tarbiyalash va o'stirishdan iboratdir.

Tadqiqot ob'ekti va predmeti. hozirgi o'zbek tilida tarixiy shakllar yetarli va xatto juda ko'p bo'lib, hozirgi o'zbek tilini umumta'lim maktablarida va Oliygo'hlarda ham faqat qiyosiy-tarixiy usulda o'rgatish ishimizning ham ob'ekti, ham predmeti hisoblanadi.

Tadqiqot usuli va uslublari. Ifodali o'qish san'ati bilan bog'liq muammolar tavsifiy va tahlil, verbal-kognitiv usullardan foydalaniladi. **Tadqiqotning o'rganilish darajasi.** Ifodali o'qish san'ati bilan bog'liq masala o'zbek tilshunosligida, asosan, XX asr boshlarida O'zbekistonda ham keng o'rin ola boshladi. N.Isomaddinxo'jaev, Sh. Inoyatov, X. Yunusov, S. Qori kabi mahoratli yoshlar badiiy o'qishni sahnaga olib chiqqan targ'ibotchilar bo'ldi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy yangiligi:

-Istiqlol tufayli jamiyatimizning, asosan, o'rta va katta yoshdagi a'zolari orasida shirinsuxandonlik, xushmomalalik, so'zamollik va muloyimlik eng yuksak insoniy fazilatlaridan biri sifatida keng qaror topmoqda.

-ifodali o'qish yakka shaxslar nutqi orqali namoyon bo'ladigan ijtimoiy hodisa ekanligi;

-u insoniyat, jamiyat, ilm-fan, texnika taraqqiyoti bilan bog'liq holda shakllanishi va rivojlanishi;

-bu yuksalish esa hamisha dialektikadagi miqdor o'zgarishlarining sifat-o'zgarishlariga o'tishi, qarama-qarshiliklar birligi va kurashi, inkorni-inkor kabi qonunlarga muvofiq sodir bo'lishi kabi masalalar bayoni tadqiqotning yangiligidir.

Amaliy ahamiyati. O'zbek tilidan referat, kurs ishlari, magistrlik dissertatsiyalari yozishda va mustaqil ishlar bajarishda qo'l keladi.

Qo'llanilish sohasi: Mazkur tadqiqot materiallari va natijalaridan o'zbek tilini o'qitish jarayonida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini takomillashtirish sohasida, o'quv- metodik qo'llanmalar yaratish jarayonida foydalanish tavsiya etiladi.

Ishning sinovdan o'tganlik darajasi. Ajiniyoz nomidagi NDPIning "O'zbek tilshunosligi" kafedrasining ilmiy-metodik kengashida muhokama qilinib, ochiq himoyaga tavsiya etildi.

Ishning tuzilishi va tarkibi: Kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

TADQIQOTNING UMUMIY TAVSIFI

Mavzuning dolzarbligi. Ifodali o'qish mashg'ulotlari badiiy asarni tahlil qilishga, yozuvchi yoki shoirning g'oyaviy-badiiy niyatini to'g'ri tushunishga o'rgatish bilan bir qatorda o'quvchi- talaba yoshlarni nasriy yoki she'riy asarlarning jozibador ohanglaridan zavqlanishga, ezgu va go'zal tuyg'ularning qaror topishiga ham yordam beradi. Zero, ifodali o'qish san'atining mohiyati ham insonda hayotga estetik munosabatda bo'lish hissini tarbiyalash va o'stirish muammosi bilan bog'liqligi mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari O'quvchilarni ifodali o'qish san'atining mohiyati va hayotga estetik munosabatda bo'lish hissini tarbiyalash va o'stirishdan iboratdir.

Tadqiqot ob'ekti va predmeti. O'quvchilarni nasriy yoki she'riy asarlarning jozibador ohanglari yuzasidan to'plangan sinxron materiallarni diaxron aspektida tahlil etish ishimizning ham ob'ekti, ham predmeti hisoblanadi.

Tadqiqot usuli va uslublari. Ifodali o'qish san'ati bilan bog'liq muammolar tavsifiy va tahlil, verbal-kognitiv usullardan foydalaniladi. **Tadqiqotning**

o'rganilish darajasi. Ifodali o'qish san'ati bilan bog'liq masala o'zbek tilshunosligida, asosan, XX asr boshlarida O'zbekistonda ham keng o'rin ola boshladi. N. Isomaddinxo'jaev, Sh. Inoyatov, X. Yunusov, S. Qori kabi mahoratli yoshlar badiiy o'qishni sahnaga olib chiqqan targ'ibotchilar bo'ldi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy yangiligi:

-Istiqlol tufayli jamiyatimizning, asosan, o'rta va katta yoshdagi a'zolari orasida shirinsuxandonlik, xushmomalalik, so'zamollik va muloyimlik eng yuksak insoniy fazilatlardan biri sifatida keng qaror topmoqda.

-ifodali o'qish yakka shaxslar nutqi orqali namoyon bo'ladigan ijtimoiy hodisa ekanligi;

-u insoniyat, jamiyat, ilm-fan, texnika taraqqiyoti bilan bog'liq holda shakllanishi va rivojlanishi;

- bu yuksalish esa hamisha dialektikadagi miqdor o'zgarishlarining sifat-o'zgarishlariga o'tishi, qarama-qarshiliklar birligi va kurashi, inkorni-inkor kabi qonunlarga muvofiq sodir bo'lishi kabi masalalar bayoni tadqiqotning yangiligidir.

Amaliy ahamiyati. O'zbek tilidan referat, kurs ishlari, magistrlik dissertatsiyalari yozishda va mustaqil ishlar bajarishda qo'l keladi.

Qo'llanilish sohasi: Mazkur tadqiqot materiallari va natijalaridan o'zbek tilini o'qitish jarayonida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini takomillashtirish sohasida, o'quv- metodik qo'llanmalar yaratish jarayonida foydalanish tavsiya etiladi.

Ishning sinovdan o'tganlik darajasi. Ajiniyoz nomidagi NDPIning "O'zbek tilshunosligi" kafedrasining ilmiy-metodik kengashida muhokama qilinib, ochiq himoyaga tavsiya etildi.

Ishning tuzilishi va tarkibi: Kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB

IFODALI O‘QISH VOSITALARI VA UNDAN FOYDALANISHNING

NAZARIY-AMALIY AHAMIYATI

Ifodali o‘qish yakka shaxslar nutqi orqali namoyon bo‘ladigan ijtimoiy hodisadir. U insoniyat, jamiyat, ilm-fan, texnika taraqqiyoti bilan bog‘liq holda shakllanadi va rivojlanadi.

Inson madaniyati, uning ilmiy saviyasi, ma'naviy boyligiga munosib ravishda yuksalib boraveradi. Bu yuksalish esa hamisha dialektikadagi miqdor o‘zgarishlarining sifat-o‘zgarishlariga o‘tishi, qarama-qarshiliklar birligi va kurashi, inkorni-inkor kabi qonunlarga muvofiq sodir bo‘ladi. Bu jarayonda o‘zbek xalqi allomalarining, yozuvchilar, so‘z ustalari, nashriyot va matbuot xodimlarining xizmati g‘oyat katta.

Ifodali o‘qish tarixi bilan tanishish va o‘rganish lektorga, tashviqotchiga o‘tmishdagi eng yaxshi notiqning ish tajribasidan tanqidiy foydalanishga yo‘l ochish bilan birga, o‘zining lektorlik tashviqotchilik mahoratini takomillashtira berishga ham yordam beradi.

Umuman, ifodali o‘qish tarixining yirik notiqdari ish uslubini o‘rganish notiqdarga taqlid qilish emas, balki har bir o‘rganuvchi, boshlovchi notiq uchun o‘z nutqiy uslubiga o‘z ifodali oqishga ega bo‘lishiga yo‘l ochadi.

Chinakam nutq katta mahorat va puxta tayyorgarlikning mahsulidir. Puxta va ta'sirchan nutq hamma vaqt ham ommaning ilg‘or qismi tomonidan mamnuniyat bilan kutib olingan va qadrlangan. Ammo hamma joyda o‘z dilidagini topib gapiruvchi ajoyib, yorqin nutqli kishilarni yoqtirgan va hurmat qilgan. Bunday kishilar o‘z nutqlarining ishonitirish quvvati: hayotiyliigi, xalqqa tushunarligi bilan e'tibor qozonganlar. Xalq quruq dabdabali, tinglovchining vaqtini oluvchi , to‘g‘ri yo‘ldan chalg‘ituvchi mahmadonalarni yoqtirmagan va ulardan yuz o‘g‘irgan.

Ifodali o‘qish-tilning tunganmas boyligini egallashdir. Ifodali oqishni egallash orqali kishi etuklik sari qadam tashlagan bo‘ladi. Insoniyat umummadaniyatining katta tarkibiy qismini notiqlik mahorati tashkil etadi.

Oddiy, madaniy va savodli gapirishni o'rgangan targ'ibotchi ifodali o'qishni egallashga birinchi qadam qo'ygan hisoblanadi. Yana ham olg'a ketish uchun esa, yorqin, obrazli, ravon gapirishni o'rgana borish lozim.

1.1. IFODALI O'QISH TARIXIDAN LAVHA

Ifodali o'qish xalq tarixi, nutq madaniyati tarixi bilan mushtarakdir. Chunki nutq paydo bo'lishi bilan nutqiy nafosat ham paydo bo'la boshlaydi. Ifodali o'qish san'ati uzoq asrlik tarixga ega. Uning tarixi o'zbek madaniy taraqqiyoti tarixining uzviy qismidir, o'tmish pedagogikasida adabiy talaffuz me'yorlarini o'rgatuvchi «Ilmiy taxvid» jonli nutq asoslarini o'rgatuvchi, «Ilmiy kalom» ilmiy va adabiy bahsga o'rgatuvchi «Ilmiy mulohaza» kabi fanlarga katta ahamiyat berilgan va shu tufayli o'tmishda deyarli har bir savodli kishi ayni paytda ifodali o'qish asoslarini egallagan so'z san'atkori ham hisoblanadi.

Badiiy adabiyotning shakllanish jarayoni, bosqichlari juda murakkab, rang-barangdir. Jumladan, adabiyot va san'at hali muayyan ma'noda sinkretik xususiyatga ega bo'lgan qadimgi davrda badiiy va ifodali o'qish san'ati ham sinkretik xarakter kasb etgan. Chunki bu davrda badiiy adabiyot yaratuvchilari ayni chog'da uning ijrochilari sifatida ham dong taratganlar. Masalan, «Avesto»ning yaratuvchilari, bora-bora uning professional ijrochilariga aylanib qolgan qohinlari toifasi xalq orasida adiblar sifatidagina emas, balki jonli so'z sehri bilan mo'jizalar ko'rsatuvchi mutaxassislar sifatida ham katta e'tibor qozonganlar. Zotan, badiiy so'z ijrochilari san'atining sarchashmalari tarixning juda uzoq qatlamlariga borib taqaladi. Adabiyotshunos olim Natan Mallaev ta'kidlaganidek «...Badiiy so'z san'ati yozuv va yozma adabiyotdan» ajralib qolgan. Ifodali o'qish san'ati bolalarning badiiy didini shaklantiribgina qolmay, ularning ma'naviy chiniqishida, xotirasining mustahkamlanishida ham etakchi o'rin egallaydi. XX asr boshlarida O'zbekistonda ham ifodali o'qish saxnada keng o'rin ola boshladi. Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniy, Mannon Uyg'ur singari etuk pedagog-rejissyorlar hamda N. Isomaddinxo'jaev, Sh. Inoyatov, X. Yunusov, S. Qori kabi mahoratli yoshlar badiiy o'qishni sahnaga olib chiqqan targ'ibotchilar bo'ldi. Hamza, Avloniy va Ayniylar o'zlari ochgan yangi usuldagi maktab o'quvchilari

uchun «Engil adabiyot», «O‘qish kitobi», «Adabiyot yoxud milliy she’rlar», «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim», kabi o‘qish kitoblari yaratilgan edilar, ularda ifodali o‘qishga alohida e’tibor berilgan. Tinish belgilariga rioya qilish, asosan, boshlang‘ich sinflarda zaruriy vosita hisoblanadi. O‘zbek badiiy so‘z ijrochiligi san’atiga bo‘lgan bedilxonlik, navoiyxonlik, fuzuliyxonlik, mashrabxonlik bilan barcha, qissashunoslik, hikoyago‘ylik, latifago‘ylik, navqasarlik, ertakchilik, kulgusi hikoyago‘ylikning taraqqiyoti bu san’atning juda qadimiy va boy tarixga, ma’lum an’anaga ega ekanligini anglatadi.

Aytish joizki, by o‘rinda boshlanqich ta’lim vazifasi kattadir; bu davrda o‘quvchilarda dastalabki ifodali o‘qishga ishtiyoq va malakalar takomillashib boriladi. Ifodali o‘qish ovoz chiqarib o‘qish bilan birga ongli o‘qish muhim ko‘rsatgich hisoblanadi. Ifodali o‘qishning maqsadi o‘qilgan matnnning mazmunidan asosiy o‘rinlarni aniqlash va shu asosida muallimning asosiy fikrini to‘g‘ri bayon etishdir. Adabiy asar matnlari so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz etib, asarda ifodalangan muallif fikrini, asar qahramonlarining ichki kechinmalari va ruhiy holatini anglab, tushunarli va ta’sirchan qilib o‘qish, qisoblanadi.

Ifodali o‘qish nima? degan savol tug‘iladi. Bu:

1. O‘rganilayotgan asardagi berilgan obrazlarning xarakterining xususiyatlarini ochib berish.
2. Muallifning shu voqea-hodisalarga munosabatini ko‘rsatish.
3. Badiiy asarning o‘ziga xos emotsional ohanglarini bera olish.

Shu bilan birga, avtorning o‘rganilayotgan asarda ifoda etilgan voqea-hodisalarga ishtirok etayotgan qahramonlarning ichki kechinmalari, hatti harakatlari va nihoyat, ruhiy holatiga bo‘lgan munosabatini ko‘rsatadi.

Tinglovchida zavq-shavq uyg‘otishda asar mazmunining imkonini yaratadi. Demak, ifodali o‘qish emotsiya uyg‘otish, voqea-hodisa, manzaralar tasvirini tasavvur etish, estetik tarbiya berishda juda muhim ahamiyat kasb etadi. Xullas, ifodali o‘qishning asosiy vazifasi asar mazmunini va emotsionalligini tovush orqali o‘quvchiga etkazishdir.

Ifodali o'qishning badiiy emotsional bo'lishi uchun o'quvchi asar mazmunini, g'oyasi haqida tasavvrga ega bo'lish maqsadini tushunishi lozim. Misol uchun 5-sinfidagi «Do'stlik» haqida ertagini olaylik. Bu hikoyani o'qishga kirishishdan oldin muallif maqsadi chinakam do'stlikni ulug'lash, do'stlik yordami qanday bo'lishini ifodalash, yuzaki do'stlik va uning yuzaki yordamidan nafratlanish g'oyasini ilgari surishdan iborat ekani aniqlanadi.

Ertakning birinchi obzatsida kutilmaganda ro'y bergan hodisa yordamga chaqirish, ikkinchi obzatsida kakku o'qishning batqoqlik koyishi, uchinchi obzatsida maynaning yordami tasvirlangan. Bu tasvirlarning biri ikkinchisiga sira o'xshamaydi.

1.2.IFODALI O'QISHNING NAZARIY-AMALIY AHAMIYATI

Badiiy adabiyot paydo bo'lishi bilan uning ifodali o'qishning og'zaki ijrochiligi ham maydonga keldi. Badiiy adabiyotning shakllanish bosqichlari g'oyat murakkab, rang-barang bo'lgani kabi, uning og'zaki ijrochilik taraqqiyoti ham ziddiyatlidir.

Zotan, o'zbek badiiy so'z ijrochilari san'atining sarchashmalari tarixning juda uzoq qatlamlariga borib taqaladi. O'rta Osiyo xalqlari pedagogikasi tarixida ifodali o'qish san'atiga bo'lgan e'tbor alohida mavqe kasb etadi.

O'zbek pedagogikasi tajribalari, ifodali o'qishni quyi sinflardan boshlab mashq qilishini va uni keyinchalik asta-sekin takomillashtirib borishni taqozo etadi. Bola dunyoni so'z bilan qabul qiladi. Dunyoga so'z orqali kirib boradi.. Keksalarimiz bola uch yoshgacha yurmasa yurmaydi, olti yoshgacha gapirma gapirmaydi, deyishadi. U maktabga borgunga qadar hayot uchun zarur bo'lgan yuzlab, minglab so'zlarni o'rganadi. Bu davrda quyidagi bosh omil bola yoki o'quvchining so'z boyligini oshrishga va ifodali o'qish ko'nikmasini takomillashtirishga ijobiy ta'sir etadi.

1. Oiladagi muloqat
2. Maktabdagi muloqat
3. Ko'chadagi muloqat

4. Ijodiy muloqat

5. Ta'lim va tarbiya bilan bog'liq mustaqil muloqat.

Har bir bola dastlabki nutq malakalarini oilada egallaydi. Endigina so'zlashni o'rganayotgan bola so'zlarni chala, yarim talaffuz qiladi. Shu paytda oiladagi kattalar uning nutqini, chala yoki noto'g'ri aytgan so'zini to'g'irlashlari zarur. Agar kattalar ham bolaga qo'shilib nonni «nanna» suvni «uvva» tarvuzni «tavuz» deb gapirsalar shunday deyishga o'rgangan bolaning nutqini to'qrilash uzoqqa cho'zilib ketadi.

Maktabga o'qishga kelgan bola birinchi kundayoq o'ziga notanish bo'lgan son- sanoqsiz so'zlar majmuasi bilan tanisha boshlaydilar.

Masalan: qo'ng'iroq, sinf, dars, tanaffus, o'quvchi va o'qituvchilar ular so'zining farqi va h.

Ta'lim jarayoni davomida ular tomonidan qo'llaniladigan fanga oid so'zlar ko'payib, takomillashib boraveradi.

Yozuv darsida mashq, grammatika, qoida; matematikadan:

qo'shish, ayrish, ko'paytirish, bo'lish, yig'indi, echish, masala, misol;

O'qish darslarida: sarlavha, matn, hikoya, ertak, she'r va ularning farqini o'rganib boradi.

Ularni o'z nutqida ishlatishga harakat qiladi. O'quvchini o'rab olgan ijtimoiy muhit ham uning so'z boyligini oshrishda muhim omil hisoblanadi.

Istiqlol tufayli ifodali o'qishga e'tibor kuchaydi. Bu sohaga oid dastur, qo'llanma va darsliklar yanada takomillashtirildi. Ifodali o'qish san'atiga katta qiziqish uyqonmoqda. Bugungi kunga kelib, ifodali o'qish san'atining bolalar boqchasidan boshlab, oliy o'quv yurtlarigacha dasturli tarzda mustahkam o'rin egallagan hamda fanning bu sohaga oid turli qo'llanma, majmua (xrestomatiya), darsliklarning yaratilayotganligi ifodali o'qish san'atiga bo'lgan e'tiborning va bu mavzuning dolzarbligining yorqin dalilidir.

Shuning uchun biz ifodali o'qishning asoslari va O'rta Osiyo mutafakkirlarining fikr-mulohazalariga tayangan holda hamda Amudaryo tumani Xalq ta'limi bo'limiga qarashli 6-sonli o'rta maktabning yuqori sinf o'qituvchilari

O'razimbetova SHirinjon va Rajapova Bahoroy (ona tili va adabiyoti)ning darslarini kuzatdim, ular bilan birgalirda dars o'tdim. Bundan tashqari, Nukus shahar xalq ta'limiga qarashli 38-sonli maktabda o'tkazgan pedagogic amaliyat davomida Jumamuratova Gulsara va Allamova Bog'dagul opalarning ham ish tajribalaridan ko'p narsalarni o'rgandim. Ularning ifodali o'qish yuzasidan olib borgan ish tajribalarini kuzatdim hamda ish tajribalariga suyanan holda «6-sinf o'quvchilarini ifodali o'qishga o'rgatish» mavzusini «Bitiruv malakaviy ishimiz»ga mavzu sifatida tanladim.

1.3. IFODALI O'QISH JARAYONIDA NUTQ VOSITALARIDAN FOYDALANISH USULLARI

Ifodali o'qish jarayonida nutq vositalaridan nafas, ovoz va nutq a'zolari faol ishtirok etadi. Ifodali o'qish kishi nutq faoliyatini maxsus e'tibor beriladigan jabhasi bo'lganligi uchun u kundalik maishiy nutqdan sezilarli farq qiladi. Shunga ko'ra, ifodali o'qishda nutq a'zolarining ishtiroki ham kundalik maishiy nutq jarayonidagiga qaraganda anchagina faol bo'ladi. Nutq a'zolarini faollashtirishga ko'maklashuvchi mashqlar majmuasiga esa nutq vositalari deyiladi.

Nutq vositalariga oid mashqlar usuli juda keng ko'lamli bo'lib, ularning umumiy majmuasi mustaqil bir qo'llanmani tashkil etishi mumkin. Shuning uchun bu erda, nutq vositalari haqida umumiy tushuncha va ayrim mashqlarni tavsiya etish bilan cheklaniladi. Ifodali o'qishning muhim vositalaridan biri nafasdir.

U kishi organizmi uchun ham asosiy ozuqa hisoblanadi. Shuning bilan birga, nutq so'zlash jarayoni, ayniqsa, ifodali o'qish san'ati nafas negizi bilan uzviy aloqadadir.

Nafas olinganda havo burun bo'shlig'idan kekirdakka boradi va nafas yo'li orqali o'pkaga o'tadi. O'pkaga kirgan havo qovurqa muskullarini kengaytiradi, natijada qovurg'alar qorin bo'shlig'idan birmuncha uzoqlashib ikki yonga kengayadi. Aniqrog'i, ko'krak qafasi har tomonga kengayadi. Shu bilan bir vaqtda qorin bo'shlig'ini ko'krak bo'shlig'idan ajratuvchi diafragma o'pkaning havoga to'lib kengayishi hisobiga pastga bosiladi.

Nafasning bu xususiyatlari, ayniqsa, ongli ravishda mashq qilayotgan paytida yoqqol sezilib turadi. To'g'ri nafas olish inson hayoti uchun ham, ifodali o'qish uchun ham juda katta ahamiyatga ega. Agar noto'g'ri nafas olinsa, o'rinsiz pauzalar qilayotgan matn mantiqan buziladi. Matndagi muallif maqsadi tinglovchiga to'g'ri etib bormaydi, fikr tushunarsiz bo'lib qoladi. Shuning uchun oliy va o'rta ymymta'lim maktablarning o'qituvchilari o'zlarining va o'quvchilarning nafas organlari muskullarini chiniqtirib borishlari lozim. Bu borada amalga oshiriladigan chora tadbirlar insonni sog'lom va baquvvat qiladi, tovush va nutqning aniq, ravon, burro va jarangdor bo'lishini ta'minlaydi.

Ovoz oliy asab tizimi signallarining mahsulidir. To'g'ri nafas olish hayot uchun naqadar zarur bo'lsa, ovoz ham kishilarning bir-birlariga bo'ladigan muomalasida katta ahamiyatga egadir. Oliy asab tizimi biror narsaga tikilish uchun ko'zlarga, biror narsani olish uchun qo'llarga, oldinga qadam tashlash uchun oyoqlarga buyruq berilgani kabi ovoz chiqarish, nutq tovushlari yoki so'zlarni talaffuz etish, ovozni jaranglashtirish yoki xirillatish, past yo baland gapirish uchun ham muayyan a'zolarga signal beradi. Oliy asab tizimining buyruqlarini bajarishda, ovozning muhim a'zolari bo'lgan halqasimon, piramidasimon va qalqansimon tag'aylar hamda ovoz paychalari asosiy ro'l o'ynaydi. Tembr hosil qilishda haqiqatan chiqayotgan tovushning yo'nalish darajasi muhim. Agar tovush faqat burundan chiqsa, xunuk, yoqimsiz, po'ngillagan tembr hosil bo'ladi. Tovush faqat qattiq tanglaydan chiqsa, rangsiz «oq tovush», ya'ni shang'i tovush hosil bo'ladi. Tovush yumshoq tanglaydan chiqib, qattiq tanglayga tegib o'tsa, jarangdor, yoqimli tovush hosil bo'ladi.

Tovushning so'nggi xossasi esa, uning balandligiga ovoz boylamlarining kengayish va tortilish darajasiga hamda ularning tebranish holati (tezligi yoki sekinligi)ga bog'liq. Boylamlar qancha ko'p tarang qilib tortilsa, ovoz shuncha baland, jarangdor: u qancha bo'sh bo'lsa, ovoz shuncha past va durillangan bo'ladi.

Demak, tovushning asosiy xossalari uning kuchi, tembri, baland-pastligi, ovoz boylamlarining o'zigagina bog'liq bo'lib qolmasdan, eng avval oliy asab tizimi

signallariga, qolaversa, tovush apparatiga taalluqlidir. Tovush apparati esa, ta'kidlanganidek, oliy asab faoliyatining umumiy qonunniyatiga, asosan, harakat qiladi. Bolalarning tovush apparati kattalarga nisbatan ancha nozikdir. Ayniqsa, boqchada, maktabda, tarbiyachi va o'qituvchilar bolalarning bo'lar-bo'lmasga baqirishlariga hamda birorta badiiy asardan olingan parchani kuchlari boricha baqirib- chaqirib o'qishlariga yo'l qo'ymaslik kerak.

Agar biror badiiy parcha noto'qri diapazon va balandlikda baqirib, kuchayib o'qilsa, u holda ovoz muskullarining o'ziga xos bo'lmagan holatda ishlashga sabab bo'ladi.

Diktsiya lotincha «dictio», so'zidan olingan bo'lib, so'zlarni aniq, burro talaffuz qilish degan ma'noni anglatadi.

Badiiy asarni ifodali o'qishda nafas va ovoz kabi diktsiyaning ham o'ziga xos o'rni bor. Badiiy asarni o'qishda mazmunini hikoya qilishda va umuman, og'zaki nutqda diktsiyaning qonun-qoidalariga rioya qilinsa, nutqning emotsional ta'siri yana ham oshadi.

Diktsiya orfoepiya bilan ham bog'liqdir. Orfoepiya qoidalari esa, nutqning tabiiy, aniq, ravon hammaga tushunarli bo'lishini talab qiladi. Maktablarda o'quvchilarni ifodali o'qishga o'rgatishdan oldin har bir darsda unli va undosh tovushlarning, har bir so'zining, har bir jumlaning lug'aviy-frazeologik ma'nosini tushuntirib, so'ngra shu so'zning talaffuzini o'rgatish maqsadga muvofiqdir.

1.4. IFODALI O'QISH VOSITALARI

Biror jismning boshqa jismning ta'sirida tebranishi va bu tebranishning quloqqa eshutilishi tovushning akustik (eshitilish) tomonidir. Jismning tebranishi havoni to'ldirantiradi, natijada tovush hosil bo'ladi. Nutq tovushlari oliy asab tizimi signali tufayli tovush paychalarining tebranishidan nutq a'zolarida hosil bo'ladigan shovqindan iboratdir. Akustik jihatdan tovushning balandligi, kuchli tembri va cho'ziqli farqlanadi.

Tovushning balandligi tebranishning miqdoriga boqliq:

tebranish qancha ko'p bo'lsa, tovush ham shunchalik baland bo'ladi va aksincha tebranish oz bo'lsa, tovush ham past bo'ladi.

Tebrangich qancha kichik bo'lsa, u shuncha tez tebranadi, binobarin, tovush ingichka chiqadi. Nutq tovushlarining kuchi tebranishning shiddatli bo'lishi bilan bog'liqdir. Tovushning kuchi o'pkadan chiqayotgan havo oqimining nutq organlariga qanday zarb bilan urilishiga qarab har xil bo'ladi.

Nutq tovushining tembri (sifati) asosiy ton bilan yordamchi tonlarning va shovqinning qo'shilishidan hosil bo'ladi. Tovushlarning tembri rezonatorlik vazifasini bajaruvchi og'iz bo'shlig'i va burun bo'shlig'idan hajmi hamda shakliga, shuningdek, og'iz bo'shlig'i va bo'g'izda hosil bo'ladigan shovqinlarga bog'liq. Shunga ko'ra, bir kishining ovozi boshqa kishining ovozidan farq qiladi. Chunki har kimning og'iz va burun bo'shlig'ining tuzilishi o'ziga xos bo'ladi. Bundan tashqari, tovush paychalarining uzunligi ham turlicha va og'iz bo'shlig'ida, ba'zan bo'g'izda hosil bo'ladigan shovqin ham har xildir.

Tovushning cho'ziqlik darajasi tebranish davom etgan vaqt bilan o'lchanadi. Nutq tovushlarining hosil bo'lishida ishtirok etuvchi a'zolar nutq a'zolari, ularning jami esa nutq majmui deyiladi.

Nutq majmuiga quyidagilar kiradi: ostki va ustki lab, tishlar, til, tanglay, kichik til, bo'g'iz usti, burun bo'shlig'i, halqum, bo'g'iz, bronx va boshqalar.

1. Urg'u haqida umumiy ma'lumot. Urg'u ifodali o'qishning asosiy vositalardan biri ekanligi va uning o'ziga xosligi. Urg'uning xilma-xilligi. Urg'uning ifodali o'qishda qo'laniladigan zaruriy turlari. (So'z urg'usi va mantiqiy urg'u):

A) so'z urg'usi haqida ma'lumot. Hozirgi o'zbek adabiy tilida so'z urg'usining vazifasi.

B) mantiqiy -logik urg'u haqida ma'lumot. Badiiy asarlarni ifodali o'qishda logik urg'uning ahamiyati (har qanday mustaqil so'zlarning ham urg'usiz to'la ma'no bera olmasligi). Ifodali o'qishda, ayniqsa, muallif maqsadini bayon etishda mantiqiy urg'uning ahamiyati. Urg'u turlari bilan bog'liq bo'lgan amaliy mashqlar.

Urg'u ifodali o'qishning asosiy vositalaridan biri bo'lib, ta'kidlash alohida e'tibor qaratish uchun xizmat qiladi.

Urg‘u so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz etishga, ma‘noni to‘g‘ri va to‘la anglashga yordam beradi. Urg‘u ilmiy adabiyotlarda leksik urg‘u, dinamik urg‘u, ritmik urg‘u, mantiqiy urg‘u, psixologik urg‘u kabi bir necha turga bo‘linib o‘rganiladi.

Bu bo‘linish lingvistik jihatdan to‘g‘ri, ammo biz o‘quvchilarni ifodali o‘qishga o‘rgatish va ifodali o‘qishning nazariy misollari haqida ma‘lumot olishlarini osonlashtirish maqsadida urg‘uning ikki turi xususida to‘xtalamiz:

1. So‘z urg‘usi.

2. Mantiqiy urg‘u.

1. So‘z urg‘usi. So‘z urg‘usi tushgan bo‘g‘indagi unli shu so‘zning boshqa bo‘g‘inlardagi unli tovushlarga qaraganda kuchliroq, cho‘ziqroq talaffuz etiladi.

O‘zbek tilida so‘z urg‘usi, asosan, so‘zning oxirgi bo‘g‘iniga tushadi. So‘zlarga qo‘shimchalar qo‘shila borishi bilan urg‘u ham ko‘cha boradi.

Masalan:

bola, bolalar, bolalarga;

ishchi, ishchilar, ishchilarga.

O‘zbek tilida shunday urg‘ular ham borki, so‘z boshida kelgan urg‘u, so‘ngi bo‘g‘inlarga tushmaydi.

Masalan: qaysi, qanday, qancha.

2. Mantiqiy urg‘u. Mantiqiy urg‘u matnda yashiringan bo‘ladi. Badiiy asarlarni ifodali o‘qishdan oldin yashiringan mantiqiy urg‘uni aniqlash uchun matnni avval bir necha marta o‘qib, muallif maqsadini tushunish, so‘ngra mantiqiy urg‘uli so‘zni aniqlash mumkin. Mantiqiy urg‘uni izlayotganda badiiy asardagi uyushib kelgan va ma‘noni kuchaytirish uchun qo‘llangan takroriy so‘zlarga, ergash gapdagi bir manzarali ayrim gapdagi ta‘kidlovchi so‘zlarga alohida e‘tibor berish zarur. Mantiqiy urg‘ular qo‘yish - gapda markaziy ma‘no hisoblangan yoki tayanch so‘zlar bo‘lgan bir yoxud bir necha so‘zlarni ajratish, o‘quvchilar uchun katta qiyinchiliklar tuqdiradi. Mantiqiy urg‘u gap ma‘nosi bilan zich bog‘langandir, binobarin, o‘quvchilarning urg‘uni to‘g‘ri belgilashi ularning gap mazmunini va tugal hikoyani to‘g‘ri tushunganliklaridan dalolat beradi.

O‘quvchilarga mantiqiy urg‘u haqida qanday qilib tushuncha berish lozim.

Bunga savol-javob metodi yordam beradi. Birinchi navbatda o'quvchilarga o'qituvchi tomonidan berilgan ma'lum savolga javob tariqasida biror gapni o'qib berish, masalan, Safar Barnoevning «Manggulikka tatigulik kun» degan hikoyasidan «1991-yil 31-avgust O'zbekistonimiz uchun asrga tatigulik kun bo'ldi. Shu kundan boshlab O'zbekiston zaminida mardona «Mustaqillik» so'zi tilimizga ko'chdi, ongimiz, tilimizdagi **qulf sharaqlab ochilib ketdi**» degan jumlani o'qib berish topshiriladi.

1. 1991- yil 31-avgust O'zbekistonimiz uchun qanday kun bo'ldi?

1991-yil 31- avgust: O'zbekistonimiz uchun asrga tatigulik kun bo'ldi.

2. Shu kundan boshlab O'zbekiston zaminida qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi?

Shu kundan boshlab O'zbekiston zaminida mardona «Mustaqillik» so'zi tilimizga ko'chdi.

3. «Mustaqillik» tufayli nimaga erishildi?

Mustaqillik so'zi tilimizga ko'chdi, ongimiz, tilimizdagi qulf sharaqlab ochilib ketdi.

V sinf o'quvchilari bunday mashq o'tkazish vaqtida aniq savollarga javob

bera borib, shubhasiz, mantiqiy urg'uni to'g'ri qo'ya oladilar. O'qituvchi gapda ko'proq e'tibor berilgan va shuning natijasida gapdagi so'zlar guruhidan ajralib turadigan so'z o'ziga mantiqiy urg'u olishini, u boshqa so'zlarga nisbatan kuchliroq talaffuz qilinishini tushuntiradi. O'quvchilar o'z javoblarini e'tibor bilan tinglaganlarida urg'uli so'zning to'xtalish bilan ajratilishini emas, balki cho'zibroq talaffuz qilinishini ham anglab oladilar. Agar o'quvchi gapni noto'g'ri o'qisa, unga yangi savol berish lozim. Savol-javob metodi unga oldiga qo'yilgan vazifaning uddasidan chiqishga yordam beradi.

O'quvchilarning mantiqiy urg'uni ongli ravishda to'g'ri qo'yishni puxta o'zlashtirishlari uchun adabiy o'qish darslarida muttasil ravishda 5-10 daqiqadan vaqt ajratishi zarur.

PAUZA (nutqiy to'xtam). Pauza haqida umumiy ma'lumot. Badiiy asarlarni ifodali o'qishda pauzaning o'ziga xos o'rni. Pauzaning xilma-xilligi. Pauzaning

ifodali o'qishda qo'llaniladigan asosiy turlari (grammatik pauza, mantiqiy pauza, psixologik pauza).

A) *Grammatik pauza haqida ma'lumot.* Uning ifodali o'qishda asosiy texnik vositalardan biri ekanligi, hozirgi zamon adabiy tilida grammatik pauzaning o'rni;

B) *Mantiqiy pauza haqida ma'lumot.* Badiiy asarlarni ifodali o'qishda mantiqiy pauzaning ahamiyati;

Kishilar gapirish jarayonida ma'lum darajada qisqacha to'xtab nafas oladilar va o'pkalarini qayta havoga to'ldirib, nutqini davom ettiradilar. Nutqdagi ana shunday to'xtash, tinish yoki shunday kichik talaffuzga *pauza* deyiladi.

Badiiy asarlarni ifodali o'qishda pauzaning o'ziga xos o'rni bo'lib, u asarning janr xususiyati, mazmuni, sintaktik qurilishi bilan uzviy bog'liq. Badiiy asarda pauza muallif fikrining tinglovchiga aniq va to'la etib borishiga katta yordam beradi.

Pauzaning uch ko'rinishi mavjud.

1. Grammatik pauza
2. Mantiqiy pauza
3. Psixologik pauza.

Badiiy asrlar ifodali o'qilganda tinish belgilarida qisqa pauza qilinadi. Bunday pauza *grammatik pauza* deyiladi.

So'z guruhlarini bir-biridan ajratib matn ma'nosini aniq va to'la ifodalashga xizmat etuvchi pazaga *mantiqiy pauza* deyiladi. Mantiqiy pauza matnni kesib o'tgan to'g'ri chiziqcha / bilan belgilanadi.

Mantiqiy pauza ifodali o'qishning o'ziga xos eng muhim unsurlaridan biri bo'lib, u faqatgina mantiq qonuniyatiga rioya qiladi.

Masalan: Yaramas (//) itday o'lib ketdi.

Yaramas itday / o'lib ketdi.

Psixologik pauza: Muallifning matnda yashiringan kuchli his-hayajonni psixologik pauza orqali ifodalash mumkin. Psixologik pauza o'quvchi va notiq nutqiga jonlilik kiritib, asarning ta'sirchanligini oshiradi. Psixologik pauza ikki chiziq bilan (//) belgilanadi.

INTONASIYA (ohang). Intonasiya haqida umumiy ma'lumot. Badiiy asarlarning g'oyaviy, emotsional xususiyatlarini ochishda intonasiyaning ahamiyati. Intonasiyaning xilma-xilligi. Intonasiya so'zlovchining ichki kechinmalari, kayfiyati, xarakter-xususiyati va turli his-tuyg'ularini ifodalash uslubi ekanligi. Nutqning yoqimli, silliq va ravon bo'lishida, nutq qismlarining biri-biri bilan bog'lanishida intonasiyani ahamiyati. Badiiy asarlarni ifodali o'qishda intonasiyaga ahamiyat bermaslik natijasida asar mazmunining noto'rin talqin etilish hollari.

Intonatsiya (ohang) ifodali o'qish jarayonida ohangning ahamiyati katta. Badiiy asarda ohang orqali qahramonlarning turli kayfiyati, ichki kechinmalari ifodalinadi. Ayniqsa, poetik asarlar ritmik ohangdorligining tinglovchiga etkazilishida ohang katta va muhim ahamiyat kasb etadi.

Ohang nutqning ritmik va ohangdor tuzilishidir. Ohang keng tushuncha bo'lib, nutq ohangi, temp, pauza, urg'u kabi hodisalarni o'z ichiga oladi.

O'quvchilarni ohangga rioya qilib ifodali o'qishga o'rgatish. O'qilayotgan badiiy asarning emotsional xususiyatlari unda ishtirok etuvchi shaxslarning turli xarakterlari, fazilatleri tinglovchiga ohang orqali etkaziladi. So'zlovchining maqsadini, turli his-tuyg'ularini ifodalashda, turli emotsional holatlarni ko'rsatishda ohangning xizmati muhim. Shunga ko'ra, u darak, so'roq, undov ohangi kabi turlarga bo'linadi.

Temp va ritm. Temp haqida umumiy ma'lumot. Nutq tempi (sur'ati) ifodali o'qishning asosiy vositalaridan biri ekanligi. Badiiy asarlarni ifodali o'qishda nutq sur'atining ahamiyati. Temp (o'qish sur'ati) -bu nutqda hayotni aks ettiruvchi, uning his-hayajonli nafasi ekanligi.

Temp - lotincha (tempus-tempas) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, sur'at daraja, vaqt degan ma'nolarini anglatadi. Ifodali o'qishning his-hayajon jihatidan intensivligi, ularning iztirobli, hayajonli nafasidir. O'qish tempi badiiy asar mazmunini va undagi voqealar rivojining xarakteriga qarab belgilanadi. Agar mazmunini to'la yoritish uchun avval uning qaysi o'rinlarini tez va aksincha, qaysi o'rinlarini sekin o'qish lozimligini aniqlab olinadi. So'ng asar mazmuni va undagi

personaj holatiga, xarakteriga qarab o'qish tempini o'zgartira borish asarning badiiy xususiyatlarini ochishga yordam beradi.

Agar personajlari o'z nutqlaridagi ahamiyatli o'rinlarda baland, past, sekin yo tez gapiradilar. Ifodali o'qish jarayonida tempni ko'tarish hovliqish degan gap emas, aksincha, jonlantirish demakdir. Badiiy adabiyotda temp va ritm asarning g'oyaviy-estetik mohiyatini ochishga xizmat qiladi, nutqning emotsional ta'sirchanligini kuchaytiradi, estetik zavq uyg'otadi. Demak, temp va ritm ifodali o'qishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Har qanday asarda o'ziga xos temp va ritm yashiringan bo'ladi. Shuning uchun o'quvchi to'g'ridan-to'g'ri ifodali o'qishga kirishmasdan avval asar bilan puxta tanishib chiqishi zarur. So'ngra, asarning temp va ritmi o'zgaradigan joylarini qalam bilan belgilab olgach, ifodali o'qishga kirishsa, asar mazmuni, muallif maqsadi tinglovchiga to'liq etib boradi.

Ritm haqida umumiy ma'lumot. Badiiy asarda ritmning xilma-xilligi va uning turlari. Ifodali o'qishda ritmning ahamiyati. Temp va ritmning badiiy asarni ifodali o'qishda birga ishlatilishi.

Ritm - grekcha (rhuthmos-ritmos) so'zidan olingan bo'lib, vazndosh, ohangdosh degan ma'nolarni anglatadi. Ritm ham ifodali o'qishda katta o'rin tutadi. Ritm, asosan, she'riy nutqqa xos. 5- sinf ifodali o'qish darslarida biror kichik adabiy asar yoki tugallangan parcha olinib, uni ifodali o'qishda qaysi o'rinlarini qanday ohangda o'qish aniqlab olinadi. Matnning xursandlikni ifoda etadigan o'rinlarini xursand bo'lib, qayg'u va g'azabni bildiruvchi o'rinlarni esa g'ayqu va g'azab ohangida o'qishga tayyorlaniladi. Shundagina asar ruhini, personajlarning xususiyatlarini o'qishda aks ettirish mumkin.

2. Umuman, badiiy asarlardagi matnni o'rganishi, avvalambor uni to'g'ri o'qish bilan boshlanadi.

Badiiy asarni to'g'ri o'qish ifodali o'qish darslarining asosini tashkil qiladi. Ifodali o'qish ongli o'qishni ta'minlaydi. Matn mazmunini angalb o'qigan o'quvchi ifodali o'qish malakalarini ham tezda o'zlashtirib oladi.

Shuning uchun ham, o'quvchining o'qishdagi onglilik va ifodalilik bir-biriga bog'liq. Ongli o'qish ifodali malakalarini hosil qilish va o'stirishga yordam beradi. Yuqori sinflarda adabiyot va nutq o'stirish dasturiga ko'ra, 5- sinf o'quvchilarini ifodali o'qishga o'rgatishda ifodali o'qishning elementari vositalaridan bo'lgan:

1. Tinish belgilariga rioya qilish

2. So'zlar va gaplar orasidagi pauzaga rioya qilish

3. Logik urg'usiga rioya qilish

4. O'qish tempiga (tezligiga) rioya qilish

5. Ohanga rioya qilish, ovoz chiqarib o'qishni mashq qilishdan iborat.

O'qiladigan matnni onglilik va ifodalilik xususiyatlarining chuqur, jonli ravishda bog'lanishi alohida ahamiyatga ega: kitobxon tomonidan oxirigacha anglangan, chuqur his qilingan asargina ifodali o'qilishi mumkin. Umumta'lim o'rta maktablarining dasturida savod o'rgatishning dastlabki kunlaridanoq ifodali o'qish malakalarini takomillashtira borish tavsiya etilgan. Sunday ekan, yuqori sinflarning 5-6- sinflarida nutq o'stirishga doir shu turlari orasida o'quvchilarda ongli, to'g'ri, ravon va ifodali o'qish malakalari hosil qilish maqsadida o'tkaziladigan mashqlarga alohida e'tibor qaratilishi zarurligi ko'rsatilgan. Dasturda to'g'ri talaffuz etish malakalari hosil qilishga alohqida ahamiyat berilgan, chunki ifodali o'qishni to'g'ri talaffuzsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Ayniqsa, boshlang'ich sinfning 1-sinfining alifbe davrida gapning boshlanishi, tugallanishi, ovozning pasayishi, so'roq, his-hayajon, undov gaplarning bir-biridan farqlash kerak bo'ladi. Shunday qilingan taqdirdagina, yuqori sinflarda ifodali o'qish darslarini o'zlashtirish ancha yengil kechadi. Shuningdek, personaj nutqidagi, qo'rqinch, shodlik, xursandchilik kabi holatlarni berish uchun o'qituvchi o'zining bor mahoratini ishga soladi va o'quvchilarni shunga o'rgatib boradi. Logik pauza so'z va jummalarni mantiqiy jihatdan bo'laklarga bo'lib-bo'lib o'qish orqali tinglovchiga etkazilishi zarur.

Beshinchi sinf ta'lim dasturiga kiritilgan matnlar o'quvchilarni o'zbek xalqining o'tmishi bilan, zamondoshlarimizning qahramonliklari bilan tanishtiradi,

keng-qamrovli dunyoqarash, O'zbekistonga bo'lgan vatanparvarlikligi, mehnatga muhabbat va do'stlik tuyg'usida tarbiyalaydi.

Adabiy o'qish mashqulotlari o'quvchilarda ijobiy qahramonlarning hatti-harakatlari va unda yuz bergan hodisalarni baholash, ularga bo'lgan o'z munosabatini ifodalash imkonini beradi. O'qituvchilar oldiga o'quvchilar badiiy asarni emotsional idrok etishni, yozuvchi tomonidan obraz va manzaralarni jonli va konkret tasavvur qilishni kuchaytirish vazifasi qo'yiladi. Bunda ifodali o'qishga matnni emotsional va estetik idrok etishning g'oyat ta'sirli kurash sifatida qarashadi. Ifodali o'qish metodikasida, shaxsan, ko'rsatishga, o'qituvchining namunasiga aloqida ahamiyat beriladi.

Dasturda matn mazmunini to'g'ri tushunishni hamda o'quvchilarning emotsional ta'sirlanishini ta'minlaydigan izohli o'qish bilan sharhlab o'qishning o'zaro alohasiga alohida e'tibor beriladi. Dasturning «adabiy o'qish» bo'limida ongli, to'g'ri, ravon va ifodali o'qish texnikasini egallash zarurligi, bu sohada malakalar hosil qilish kerakligi ta'kidlanganadi. Ko'rsatilgan o'qish sifatlarini hosil qilishning asosiy sharti ovoz chiqarib o'qishni mashq qilishdan iborat.

Ifodali o'qish, ayniqsa, asarning g'oyaviy mazmunini chuqur tushunishda, badiiy xususiyatlarini ochishda katta ahamiyatga ega. Barcha janrdagi asarlar bir xilda o'qilmaganidek, hamma ham bir xilda ifodali o'qiy olish qobiliyatiga ega emas. Ayniqsa, oliy o'quv yurtlarining ko'pchilik talabalari uzoq vaqt o'zlari mansub bo'lgan sheva ta'sirida bo'ladilar. Sheva ta'sirida «ifodali» o'qilgach, asar mazmuniga esa putur etadi, uning badiiy-estetik (go'zallik) ta'sirchanligi susayadi. Shuning uchun o'quvchilarni shevalar ta'siridan qutqarish, ularni ifodali o'qishga o'rgatish tarbiyaviy jihatdan muhim ahamiyatga ega, asar mazmunini puxta o'zlashtirishda, uning badiiy mohiyatini ochishda yaqindan yordam beradi. O'qituvchining ifodali o'qishi o'quvchilar uchun namuna hisoblanadi. Chunki o'qituvchining namunali o'qishi o'quvchilarda ifodali o'qish malakalari tarkib topishining eng muhim yo'llaridan biridir. O'qituvchi shaxsiy namunasi vositasida asarning poetik go'zalligini his qilishga yordam beradi.

O'quvchilarni ifodali o'qishga o'rgatishning o'ziga xos tomoni shundaki, har qanday mashqdan oldin o'quvchilar bilan to'g'ri va aniq talaffuz qilish mashqlari olib borilishi kerak; bu ishlar fonetikaning o'rganish vaqtidagina emas, ona tili va adabiyoti darslarining har birida amalga oshirilishi shart. Beshinchi sinfda ifodali o'qishga o'rgatish, rejali, tizimli va bosqichma-bosqich murakkablashib bormog'i lozim.

V sinf o'quvchilarining o'qish texnikasi bo'shlig'ini va xato talaffuz etishini bahona qilib, ifodali o'qish malakalari hosil qilishga doir ishlarni poylarga solish yaramaydi. O'quvchilar tomonidan o'qiladigan har qanday asarlar ifodali bo'lishi kerak. O'quvchilar asarning mazmunini, g'oyasini va obrazlarning xarakterli belgilarini bayon etayotganlarida ma'lum tempga, gap turlariga muvofiq ohangga rioya qilishlari, tinish belgilari kelgan o'rinlarda to'xtalishlari, keraksiz joylarda to'xtalmasliklari, mantiqiy urg'ularni ajratishlari zarur. Ifodali o'qishning mustahkam ko'nikmalari hosil qilish ishi uzoq davom etadigan, murakkab va har tomonlama jarayondir, shuning uchun dastlabki ifodali o'qish darslaridan, bir qancha mashqlardan keyinroq barcha o'quvchilar darhol o'rganadigan asarni yaxshi o'qib ketadilar, deb umid qilmaslik kerak.

Lekin to'g'ri yo'lga qo'yilgan mashqlar asta-sekin istalgan natijalarga olib keladi. Binobarin, ifodali o'qish malakalari hosil qilish uchun ma'lum miqdorda maxsus soatlar ajratish foydadan xoli bo'lmaydi. Bunday darslarni ifodali o'qish vositalarini: mantiqiy urg'ular qo'yishni, to'xtalishni, ohangni o'rgatishga doir mashqlar qildirishga bag'ishlash darkor. Bunday darslarni she'riy asarlar asosida o'tkazish ancha samarali bo'ladi. Ifodali o'qish vositalarini o'rgatish mashqlarini yaxshi tushuniladigan matnlar asosida o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Bunda, birinchi navbatda, ifodali o'qishning uch elementiga: asarning g'oyaviy-emotsional mazmunini ochishda muhim ro'l o'ynaydigan to'xtalish (pauza), mantiqiy urg'uga va ohangga alohida e'tibor qaratmoq lozim. Chunki to'xtalish va mantiqiy urg'ular asarning mantiqiy tomonini aniqlab olish uchun xizmat qiladi. O'quvchilar to'xtalishlar to'g'risidagi tushunchani va ularga rioya qilishga doir amaliy ko'nikmalarni to'rtinchi sinfdayoq egallagan bo'ladilar biroq, odatda, beshinchi

sinfda ko'pgina o'quvchilarning o'qish vaqtida to'xtalishlarga rioya qila bilmasliklari ma'lum bo'lib qoladi.

Shuning uchun beshinchi sinfda dastlabki kunlardan o'quvchilarni to'xtamdan nutqning ifodalilik vositasi sifatida foydalanishga o'rgatish taqozo etiladi: «Pauza nutqimizning eng muhim elementi va uning asosiy vositalaridan biridir». Tinish belgilari ma'lum darajada to'xtalishning asosiy mo'ljali (orientiri) bo'lishi mumkin. Boshlang'ich sinflarda faqat tinish belgilarigagina to'xtalish qilinadigan bo'lsa, Beshinchi sinfdan boshlab esa o'qituvchi o'quvchilarni shunday matnlar bilan tanishtira boshlaydiki, ularda tinish belgilarning yo'qligiga qaramasdan, manoli to'xtalish deb ataladigan to'xtalishlarga rioya qilish zurrur bo'ladi.

O'quvchilarni to'xtam qilishga o'rgatish paytida, birinchi navbatda, ularda o'zicha va bemaqsad to'xtalish qilish odatini bartaraf etish zurrur. Buning uchun o'qituvchi amaliy ko'rsatish yo'li bilan o'quvchilarni nuqta, tire, so'roq, undov belgilaridan keyin davomli to'xtalish, vergul va ikki nuqtadan keyin esa qisqa to'xtalish qilish bilan tanishtiriladi. Bunda tinish belgilaridan keyin to'xtalish qilish kerakligi o'qib mashq qildirish orqali mustahkamlanadi.

Bunday mashqlarga bir qancha darslarda loaqal 5-7 daqiqa sarflanadi, lekin malakalar mustahkamlanib qolishi uchun bunga o'xshash mashqlarni bir qancha darslar davomida muttasil o'tkazib turish lozim.

Mantiqiy to'xtalishlarga rioya qilishga o'rgatish ancha qiyindir, chunki ular hech qanday tinish belgilari bilan ko'rsatilmaydi, balki bayon etish ma'nosidan anglashiladi. O'quvchilar o'qiladigan matn ma'nosini yaxshi anglab olgan taqdirdagina bu vazifaning uddasidan chiqa oladilar. Matnlardan maxsus tanlab olingan misollar asosida o'quvchilarni mantiqiy to'xtalish qilishga o'rgatish vaqtida dastlab o'qituvchining o'zi matnni yaxshilab o'qib berishi va o'quvchilarga satrlarni nima uchun shunday o'qiganligini tushuntirishi lozim.

O'quvchilarda to'g'ri ifodali o'qish malakalarini hosil qilish bevosita o'qituvchining badiiy asarning asosiy fikrini ochib berish, tushunarli holda matnni tahlil qilish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi.

O'qituvchi ifodali o'qishga tayyorlanayotganda dastavval asarni e'tbor bilan o'rganib chiqishi, yozuvchi tomonidan tasvirlangan manzaralarni, qahramonlarning ichki kechinmalarini fikran tasavvur qilishi, ularning hatti-harakatlarini baholashi, asarni mantiqiy grammatik tuzilishi jihatidan tahlil qilib chiqishi lozim. Puxta tayyorgarlik o'rganiladigan asarni o'quvchilarga ifodali o'qib berishga, o'zi his etgan barcha narsani o'quvchilar ongiga singdirishga va shu bilan o'quvchilarni ifodali o'qishga tayorlashga imkon beradi.

O'qituvchining ifodali o'qishi matnning dastlabki tahlili bo'lib, bu tahlil bundan keyin o'quvchilar oldiga qo'ygan savollar maxsus topshiriqlar yordamida chuqurlashtiriladi. O'quvchilarning ifodali o'qishi esa, o'rganilayotgan asarning ular tomonidan qanchalik tushunganliklarini tekshirish bo'ladi.

Maktablarda o'qituvchining ifodali qilib o'qishi alohida ahamiyatga ega, chunki o'quvchilarning lug'aviy-frazeologik zaxirasining kambag'alligi asarni birinchi marta tahlil qilayotganda uning g'oyaviy mazmunini, badiiy tasvirning go'zalligini tushunib olishlarida qiyinchilik tug'diradi.

IKKINCHI BOB

BADIIY ASARLARNI IFODALI O‘QISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Badiiy asarlarni ifodali o‘qishdan asosiy maqsad asar mazmunini, muallifning fikr-mulohazalarini, qahramonlarning ichki hissiyotlarini tinglovchiga ravon va tushunarli, ta’sirchan qilib yetkaza olishdan iborat ekanligi kompozitsion tuzilishiga ko‘ra belgilanishi. Asarning g‘oyaviy mazmunini, obrazlar tizimini va xususiyatlarini chuqur o‘rganish ifodali o‘qishning asosiy omillaridan biri ekanligi.

O‘quvchilar badiiy asarlarning yoki ulardan olingan parchalarni to‘g‘ri ifodali o‘qisalar, ularning ko‘z oldilarida alohida yangi manzaralar, hodisa va voqealar namoyon bo‘ladi.

Buning uchun ifodali o‘qish darslarini to‘g‘ri tashkil qilish o‘qituvchi zimmasiga tushadi. Shuning uchun ham, o‘qituvchidan adabiy asarning badiiy xususiyatini aks ettirib emotsional zavq beradigan qilib o‘qish talab qilinadi. Agarda o‘qituvchi matnni yuqorida qo‘yilgan talab asosida o‘qiy olsa, unda asarning badiiy ta’sir kuchini, yozuvchining maqsad va ruhiy holatini, tasvirlanayotgan hayot manzarasini tinglovchining ko‘z o‘ngida to‘g‘ri gavdalandira oladi.

Shunga ko‘ra, o‘quvchi ham xuddi o‘z o‘qituvchisi singari o‘qishga harakat qiladi, unga tahlid qiladi, uning yo‘lidan borgisi keladi. Matnni to‘g‘ri o‘qishning asosiy yo‘llaridan biri, avval matn bilan tanishib chiqish zaruriyatini tug‘diradi. O‘quvchi matnni bir marta ichida o‘qib, notanish so‘zlarni aniqlab olgach, so‘ngra matnni ovoz chiqarib ifodali o‘qishga kirishsa, qo‘yilgan maqsadga tezroq erishishi mumkin. Bundan tashqari, badiiy matnni o‘qib, uni og‘zaki hikoya qilib berish, asar mazmunini to‘la tushunishga olib keladi. Agar asar mazmunini to‘la tushingan o‘quvchi, matnni to‘g‘ri, ifodali o‘qishi mumkin.

2.2. SHE'RIY ASARLARNI IFODALI O'QISH

Ifodali o'qish bilan qayta ijodiy hikoyalash bir-biriga juda yaqin turadi. Biror badiiy asarni yoki undan olingan parchani ifodali o'qigan vaqtda o'quvchi iloji boricha muallifning fikriga yaqinlashtirib so'zlab berishga, yozuvchining nutq uslubini, matnning syujet chizig'ini va kompozitsiyasini saqlashga harakat qiladi. U tinglovchilarning asar mazmunini yaxshiroq tushinishlariga, undan ta'sirlanishlariga erishish uchun ifodali o'qish vositalaridan biri bo'lgan ohangdan, mimika va imo ishoralardan foydalansa maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'quvchi badiiy asar matnini so'zma-so'z hikoya qilib bersa, qayta ijodiy hikoyalashda esa, u bilim qobiliyatini ishga solib, hikoya qilinadigan asarga nisbatan erkinroq munosabatda bo'ladi. Asosiy e'tiborni asardagi biror voqeaga qaratmay muayyan g'oyani birinchi o'ringa qo'yadi. Hikoya qilish jarayonida o'quvchi matnni qisqartirishi, unda tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlarni o'z so'zlariga almashtirib hikoya qilishi mumkin.

O'quvchi o'qilgan matnni ijodiy qayta ishlab, asosiy mazmunini saqlagan holda uni yangi shaklda bayon qilishga odatlanadi. O'z fikr-mulohazalarini bayon qilish uchun yangi-yangi shakl va iboralarni ishlatishga harakat qiladi, ularni isbotlash maqsadida matndan parchalar- sitatalar keltiradi. Shu yo'l bilan ularning og'zaki nutqi bir muncha yaxshilanadi, fikr yuritishlari esa ravonlashadi.

2.2.1. BARMOQ TIZIMIDAGI SHE'RLARNI IFODALI O'QISH

Vazn - badiiy shaklning eng muhim qismlaridan biri ekanligi. Asar mazmuni, ijodkor dilini to'liqlantirayotgan muammolar, badiiy timsollarda mujassamlantirilayotgan umubashariy g'oyalarni jozibador, ta'sirchan qilib ifodalashda vaznning ahamiyati.

Barmoq, vazni haqida ma'lumot. Barmoq sistemasi o'zbek she'riyatining eng qadimiy, eng ommaviy va eng xalqchil ko'rinishlardan biri ekanligi. Ushbu vazndagi she'rlarda hijo va uning ifodali o'qishdagi roli.

She'riy asarlarni ifodali o'qishda turoq va uning xususiyatlari.

Barmoq tizimidagi she'rlar vazning hosil qilishda turoqning asosiy komponentlardan biri ekanligi. She'rda turoqlar sonining bir va bir nechtdan

iborat bo'lishi. Barmoq vaznidagi she'rlar ifodali o'qilganda ularning erkin va aruz vaznida bitilgan asarlarning o'qilishidan farq qilishi.

She'riy mashqlar:

E.Vohidov: "Rubobim tori ikkidur...", O'zbek xalq qo'shig'i: "Ro'molim bor...", Shayxzoda: "Ko'za olib chiqqan yaxshi qiz...", A.Oripov: "Bahor chog'i edi", Pushkin: "bahorim yillari", A.Barto: "Hoy irkit qiz..." Maxtumdali: "Ayrilma" kabi she'rlarni o'qish.

6-ma'shg'ulot

ERKIN VAZNDAGI SHE'RLARNI O'QISH.

Erkin she'r vazni haqida umumiy ma'lumot. Bu vazndagi she'riy misralarning hijolar soniga emas, balki rang-barang ritmi, ritmining turlanib turishi va pauzalar bilan farq qilishi. Erkin vazndagi she'rlarni ifodali o'qishda hijo va turoqlarning bir xilda takrorlanmasligi xususiyatlari.

So'zlashuv tiliga yaqinligi, fikrning jo'shqinligi, publitsistik ruhda bo'lishi erkin vazndagi she'rning asosiy belgisi ekanligi.

Bu turdagi she'rlarni ifodali o'qishda she'riy matnni puxta o'rganish hijo va turoqlarni to'g'ri ajrata bilish, pauza va urg'uli so'zlarni aniqlay olishning ahamiyati. Erkin vaznda yaratilgan she'rlarni o'qib nazariy ma'lumotlarni yanada chuqurlashtirish. H.Olimjonning "Baxtlar vodiysi", M.Tursunzodaning "Osiyo ovozi", G'.Gulomning "Sen yetim emassan" kabi she'rlarni o'qish.

7-ma'shg'ulot

Oq she'r (kofiyasiz she'r)larni o'qish.

Oq she'r haqida ma'lumot. Oddiy so'zlashuv tiliga yaqin bo'lishi, poetik ko'tarinki ruhda yaratilishi, oq she'rga xos xususiyatligi. Qofiyasiz nazmiy asar -oq she'rning barmoq sistemasiga asoslanishi.

O'zbek she'riyatida M.Shayxzodaning "Chorak asr devoni", "Urug' socharlar" she'rlari va "Mirzo Ulug'bek" tragediyasi oq she'r namunasi ekanligi. Usmon Nosir va Shavkat Rahmonlarning oq she'rlaridan namunalar o'qish.

Rus adabiyoti klassiklari A.S.Pushkinning "Boris Godunov, Suv pariye" asarlari, M.Yu.Lermontovning "Kalashnikov haqida qo'shiq", Nekrasovning

"Rusiyada kim yaxshi yashaydi" asarlari oq she'ring go'zal namunasi ekanligi. Mazkur asarlardan parchalar o'qish.

8-ma'shg'ulot

Nasriy she'rlarni o'qish

Nasriy she'r haqida ma'lumot. Qofiya, ichki qofiya, vazn va ritm kabi she'riy unsurlarning mavjudligi nasriy she'ring asosiy xususiyati ekanligi. Bunday nasriy she'rlar mumtoz (klassik) adabiyotda saj' yoki nasriy musajja' nomi bilan yuritilishi.

Nasriy she'r o'zbek mumtoz (klassik) adabiyotiga xos bo'lib, uning hozirgi zamon adabiyotida ham yangi shaklda davom etayotgani. Nasriy she'r namunalaridan o'qish. Alisher Navoiyning "Mahbubul qulub". A.Qodiriyning "Mehrobdan chayon". M.Ismoilning "Farg'ona tong otguncha", U.Umarbekovning "Bolgar qo'shiqlari" asarlaridai nasriy she'rda bitilgan o'rinlarini o'qish.

9-ma'shg'ulot

Aruz vaznidagi she'rlarni o'qish.

Aruz vazni haqida umumiy ma'lumot. Aruz vaznidagi asarlarning boshqa vaznda yaratilgan asarlardan tubdan farq qilishi. Aruzda hijo. Ularning qisqa (V), cho'ziq (-), o'ta cho'ziq (=)bo'lishi.

Qil-ma-g'il-zin hor-iz-hor eh-ti-yoj Kim-a-ziz-el ni-qu-lur-xor eh-ti-yoj.

So'r-ma-ho-lim ni-ki bo'l-dum bur-no-g'i-din zor-roq

Jism-jon-din zo-ru jo-nim jism-din af-g'or-roq.

Aruz vaznidagi she'rlarning hijolarini aniqlashda ularning faqat yozilishiga qarab emas, balki o'qilishiga, ohangiga, qanday talaffuz qilinishiga qarab aniqlanishi.

Rukn haqida umumiy ma'lumot. Ruknlarning hijolar miqdori va qisqa cho'ziqligiga qarab sakkiz aslga bo'linishi. Bahrlar va ularning tarmoqlari, ruknlarning guruhlashib kelishida bahrlarning roli. Aruz vaznidagi ayrim asarlarni ikki xil vaznda ham o'qish mumkinligi (Ogahiyning "Keldilar" g'azali misolida

ko'rish). A.Navoiy asarlari o'zbek klassik she'riyatidagi aruzning barcha masala va xususiyatlarini, bahr va vaznlarni o'rganishda bosh manba ekanligi. A.Navoiy asarlari bo'yicha mashq qilish -aruzni o'rganish, aruzda she'r o'qish malakasini o'stirishda g'oyat ahamiyatga ega ekanligi.

"Xazoyinul-maoniy"da qo'llanilgan bahrlar. Shu bahrda yaratilgan g'azallarning ifodali oqilishi. "Xamsa", "Lisonut-tayr" asarlarining vazni va ularning paradigma xususiyatlari.

2.3. NASRIY ASARLARNI IFODALI O'QISH

Nasriy asarlarni ifodali o'qish ham katta mahorat talab qiladi. Chunki, adabiy asarning badiiy xususiyatlari, unda oldinga surilgan fikrlar yozuvchi dunyoqarashi kabi muhim masalalarni aniqlashda ifodali o'qish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun o'qituvchi matn tanlashda juda ehtiyot bo'lmog'i lozim. Matn yuqori saviyaga, yuksak badiiy qimmatga ega bo'lgan, shu bilan bir qatorda, ta'lim - tarbiyaga oid bo'lmog'i kerak. Olingan parcha hajm jihatidan juda katta bo'lmasligi maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, matnda dialoglar ham bo'lishga e'tibor berish kerak. Shundagina og'zaki nutqni o'stirish, badiiy asarning g'oyaviy mazmunini chuqur tushunish, obrazlar tizimini o'rganish, umuman, yozuvchining hayotga bo'lgan munosabatini anglash kabi ifodali o'qish darslari oldiga qo'yiladigan qator talablarga javob berishi lozim. Nasriy asarlarni ifodali o'qishni hammaga yaqin va oson bo'lgan xalq og'zaki ijodiga mansub ertakdan boshlash maqsadga muvofiqdir.

Adabiy asarlarning badiiy xususiyatlari, ularda ilgari surilgan g'oyalar, yozuvchining dunyoqarashi va maqsadi kabi muhim masalalarni aniqlashda ifodali o'qishning ahamiyati va o'ziga xosligi.

Badiiy asarlarni, xususan, nasriy asarni ifodali o'qishda, so'zlovchining nutqiy harakati, pauza, ohang, urg'u, turli xil imo-ishoralar fikrning tinglovchiga tez yetib borishini ta'minlashda alohida ahamiyat kasb etishi.

2.3.1. QISSALARNI O'QISH

Qissa haqida umumiy ma'lumot. Qissalarning turlari va ularni ifodali o'qishdagi o'ziga xosliklar. Asar syujeti va uning tarkibiy qismi bo'lgan prolog,

tugun, rivojlanish, kulminatsiya, yechim va epilog kabi omillarni (faktorlarni) puxta o'rganib chiqish masalasi. Qissada tasvirlangan hayot va tabiat manzaralarini xilma-xil obrazlar dunyosining o'ziga xosligini ta'sirchan o'qish va jozibador nutq orqali aks ettirish ifodali o'qishning asosiy sharti ekanligi. Asarni ifodali o'qishning inson ma'naviy olami va estetik tuyg'ularini boyitishdagi beqiyos ahamiyati.

Ch.Aytmatov "Birinchii muallim", "Bo'tako'z", "Jamila", A.Qahhor "Sinchalak", L.Tolstoy "Xojimurod" kabi qissalarni o'qish.

2.3.2. ROMANLARNI O'QISH

Roman haqida umumiy ma'lumot. Roman janridagi asarlarni ifodali o'qishning o'ziga xos xususiyatlari (murakkabliklari). Roman turlari (tarixiy, harbiy, fantastik va boshqa). Ularni ifodali o'qishdagi o'zgachaliklar. Ifodali o'qish uchun romandan parcha tanlash prinsipi. Nasriy asarlarni ifodali o'qishda tinish belgilari -urg'u, pauza, ohang va boshqalarning ahamiyati.

Romanda personajlar nutqining turli ko'rinishlari -monolog, diolog va voqyeani bayon etish usullari -chekinish, tavsif, tabiat tasviri (peyzaj) va boshqalarni ifodali o'qishning o'ziga xos jihatlari. Romandan parchalarni ifodali o'qiganda asarda ishtirok etayotgan inson qalbining tavlaniishlarini butun nozikligi bilan aks ettirish mahorati. Buning uchun asar ishtirokchilaridan har birining tabiatini, xulq-atvorini, madaniy-saviyasini, kishilar bilan o'zaro munosabatini, jamiyat hayotida tutgan o'rnini chuqur o'rganishning alohida ahamiyat kasb etishi.

Badiiy asarlarni ifodali o'qishning inson ma'naviy -ruhiy olamini boyitish va estetik go'zallik ruhida tarbiyalashdagi beqiyos ahamiyati. "Ufq", "Asrga tatigulik kun", "Anna Karenina", "Urush va tinchlik", "Marten Iden" "O'tgan kunlar", "Diyonat" va boshqa romanlarni o'qish.

2.3.3. DRAMATIK ASARLARNI IFODALI O'QISH

Drama haqida umumiy ma'lumot. Dramatik turlar. Dramatik asarlarning boshqa badiiy asarlarni ifodali o'qishdan farqi.

Dramatik asarlarda nutqning aniqligi, uslubi, temp va ritm, pauza va ohangning hal qiluvchi ahamiyatga egaligi.

"Ayajonlarim", "Oltin devor", "Kelinlar qo'zg'oloni", "Alisher Navoiy", "Mirzo Ulug'bek", "Shoh Edip" kabi dramatik asarlarni o'qish.

2.4. Masalni ifodali o'qish

Masal janri haqida umumiy ma'lumot. Masal turlari. Unda xalq iboralari, frazeologik birikmalarning ishlatilishi. Masalni ifodali o'qishning boshqa janrlarda yaratilgan asarlardan tubdan farq qilishi. She'riy va nasriy masalalarni o'qishning o'ziga xos xususiyatlari. Masalni rollarga -majoziy obrazlar qiyofasiga kirib o'qish.

Klassik adabiyotimizda yaratilgan masallarni ifodali o'qishning o'ziga xos xususiyatlari (masalan: "Maymun bilan Najjor" "Toshbaqa bilan Chayon" va boshqa asarlar asosida).

Axloqiy hajviy va kesatq mazmunini kinoyaviy majoziy obrazlarda aks ettiradigan taraqqiyotimizga halaqit beradigan illatlarni, byurokrat, tovlamachi va ma'naviy buzuv kishilarni tanqid qilishga qaratilgan kichik she'riy va nasriy asarlarga *masal* deyiladi.

Masal, asosan, epik asar turlaridan biri bo'lib, unda kishilar xarakteriga xos xususiyatlar hayvonlar va o'simliklarga ko'chiriladi. Yozuvchi xalq og'zaki ijodidan, ayniqsa, maqollar, hikmatli so'zlar hamda xalq, o'rtasida keng tarqalgan turli xil iboralar-piching, kesatish va boshqalardan ustalik bilan foydalanib, insonga xos bo'lgan u yoki bu salbiy belgi - xususiyatlardan kulish orqali pand-nasihat qiladi.

Masal badiiy adabiyotning she'riy va nasriy shakllarida yaratiladi. Masalani ifodali o'qish katta mahorat talab qiladi. Unda tulki-aldoqchi, bo'ri - ochko'z, chayon - tili zahar, ilon - makkor, to'tiqush - gapdon, bulbul g'azalxon va xushovoz kishilarga o'xshatiladi.

Masallarda yashiringan o'tkir kinoya, voqealarning tez-tez o'rin almashib turishi uni bir matnda o'qishga halaqit beradi. Shuning uchun ifodali o'qishga etarli malaka hosil qilmagan o'quvchi avval matn bilan tanishib chiqmog'i lozim. Tanishish jarayonida o'quvchi personajlarning xarakter - xususiyatlari va muallifning g'oyaviy niyatini aniqlaydi.

2.5. ERTAKLARNI IFODALI O'QISH

Ertak xalq og'zaki ijodining eng qadimgi turlaridan hisoblanadi. Unda fantaziya va mubolag'a kuchli bo'lib, xalq hayoti, urf-odatlar, intilish va kurashlari, orzu-armonlari aks ettiriladi. Shunisi xarakterliki, deyarli barcha ertaklar asosida ezgulik bilan yovuzlik o'rtasidagi keskin kurash turadi va albatta, ezgulik tantanasi bilan yakunlanadi. Ertaklarni ifodali o'qishdan oldin, o'zbek xalq ertaklarida turli-tuman shaklda ishlatiladigan an'anaviy muqaddima namunalaridan misollar keltirib, ularning bir-biridan farqi tushuntiriladi.

Masalan: «Tulki bilan tovu» ertagining muqaddimasiga diqqat qiling, «ertagi yo ertagi, echkilarning burtagi, qirg'ovul qizil ekan, quyrug'i uzun ekan, g'oz karnaychi ekan, o'rdak surnaychi ekan, ola qarg'a ozonchi, qora qarg'a qazonchi, chumchuq chaqimchi ekan, to'rg'ay to'qimchi ekan, bo'ri bakovul ekan, ertagimning eri bor, etti kunlik eri bor, etti kunlik erida dumi kalta bo'ri bor...»

O'zbek xalq ertaklaridan «Oypari»ning muqaddimasi undan farq qiladi:

«Bor ekanda yo'q ekan, och ekanda to'q ekan, o'tgan zamonlarning birida Husanboy ismli kambag'al bir bechora yigit bo'lgan ekan, uning yotarga joyi ham yo'q ekan».

E'tibor berilsa, ikkala ertakning muqaddimasi ham boshqacha-boshqacha o'qilishini sezish qiyin emas. Masalan, birinchi ertak muqaddimasi sajda yozilganligi uchun ifodali o'qiganda ritmga ham katta e'tibor beriladi:

«Ertagi yo ertagi echkilarning butagi».

Ikkinchi ertak muqaddimasi esa undan butunlay farq qiladi: «Bor ekanda, yo'q ekan, och ekanda to'q ekan...» Bu parcha xuddi muallif bayoni kabi vazmin o'qiladi.

2.6. HIKOYALARNI IFODALI O'QISH

Hikoya epik turning kichik janri bo'lib, kishi hayotidagi ma'lum bir voqeani tasvirlaydi, ammo shu voqeaga qadar bo'lsin va undan keyin ro'y beradigan voqealarni bartaraf bayon etmaydi.

Shunisi xarakterliki, hikoyada qahramon hayotidan kichik bir epizodi olinib, unda hayotning muhim, tipik ko'rinishi ixcham shaklda tasvirlanadi.

O'quvchi hikoyani ifodali o'qishda bu janrning ana shu jihatlarini e'tiborga olishi, matndagi muallif nutqi, tabiat tasviri, dialoglar hamda qahramonning ichki kechinmalarini puxta o'rganishi lozim.

Masalan: quyidagi Abdulla Qahhorning «O'g'ri» hikochsining o'qilishini ko'rib chiqamiz. Bu hikoyada bir-biriga qarama-qarshi ikki sinf vakillari ishtirok etgan. Ularning ma'naviy qiyofasi ham, ijtimoiy kelib chiqishlari ham, tomoman bir-biriga ziddir. Asarda Qobil bobo obrazi xonavayron bo'lgan dehqonlarning yorqin timsoli bo'lsa, pristav va ellikboshilar hukmron sinfning tipik vakillari sifatida tasvirlanadi. Shuning uchun o'qish jarayonida Qobil boboning nihoyatda soddaligi, amaldorlardan madad kutishi, ularga ishonch, xo'rlanganligi, amaldorlarning esa poraxo'rligi, ikki yuzlamachiligi, fuqorani mensinmasligi ravshan sezib turishadi. Shundagina tinglovchida Qobil boboga nisbatan achinish, mehr, muxabbat, amaldorlarga cheksiz nafrat tuyg'ulari uyg'onadi.

Respublikamiz viloyatlaridagi, jumladan, Amudaryo tuman Xalq ta'limi bo'limiga qarashli 6-sonli maktabning 5-6-sinf adabiyot darslarida o'tkazilgan kuzatishlar to'la asosda, ko'pgina maktablarda ifodali o'qish etarli darajada olib borilmayapti, degan xulosa chiqarishga imkon beradi. Adabiyot darslarida o'quvchilarning talaffuzda ko'pgina xatolarga yo'l qo'yib, xom ifodasiz o'qiyotgani kuzatiladi. Ko'pincha shunday faktga ham duch kelinadi: o'quvchilar matn mazmunini durstgina gapirib beradilar, biroq matnning o'zini bemalol ravon o'qiy olmaydilar, buni, birinchidan, boshlang'ich ta'lim bosqichida ongli o'qishga etarli darajada mashq qildirmaganligi bilan, ikkinchidan, (V sinflar) o'qish texnikasi malakasining yo'qligi bilan izoqlash mumkin.

Tabiiyki, boshlang'ich sinf o'quvchisi, yuqori sinf o'quvchisiga qaraganda ifodali o'qish malakalarini hosil qilish qiyindir. Boshlang'ich sinf o'quvchisi birinchi navbatda, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish malakalarini egallashi lozim, o'rganiladigan matnni anglab ifodali o'qish to'g'risida gap ham bo'lishi mumkin emas. Agar o'quvchi shu ko'rsatib o'tilgan malakalarni boshlang'ich sinflarda egallamasa, ular yuqori sinflarda bir qancha qiyinchiliklarga duch kelishi aniq,

ularni bir vaqtda bartaraf qila olmaydi, natijada uning bir ohangda, sekin noaniq o'qishi ana shundan kelib chiqadi.

O'qituvchi bolalarga matnni anglab o'qish, uni estetik idrok qilish malakalarini singdirib borish ustida ishlash bilan ayni vaqtda bolalarning o'qish texnikasiga, pauzalarga rioya qilishga, mantiqiy urg'ularni qo'yishga, to'g'ri ohangga o'rgatish lozim. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, (5-6 sinf), hatto yuqori sinf o'quvchilari gap oxirida ham pazuga rioya qilmaydilar, matnni bir boshdan, to'xtamasdan, tinish belgilari bor joyda pazuga rioya qilmasdan o'qiyveradilar, darak, so'roq va undov gaplarda ohangga ahamiyat bermaydilar, mantiqiy urg'ular qo'yishda qiynaladilar.

She'riy matnlarni o'qish vaqtida o'quvchilarning eng asosiy xatolari qo'yidagilardan iborat: bir ohangda baralla o'qish, she'riy qichqirib o'qish, o'quvchilar baland ovoz bilan, lekin ifodasiz o'qiydilar, ayrim so'zlarni qichqirib aytadilar, pauza va mantiqiy urg'ularga rioya qilmaydilar: qariyb har bir so'zdan keyin pauza qiladilar, sekin o'qiydilar. Bu kamchiliklar o'qituvchining ifodali o'qish malakalarini hosil qilishga etarli darajada e'tibor bermaganligi bilan ham izohlanadi.

O'quvchilarda ifodali o'qish malakalarini hosil qilishda eng zo'r mas'uliyat o'qituvchi zimmasiga yuklanadi. O'quvchining malakali o'qiy olishi juda muhimdir, chunki boshlanqich sinfda ifodali o'qish namunasini ko'rsatish g'oyat muhim rol o'ynaydi.

O'qituvchining o'quvchilar yo'l qo'ygan xatolarni qanchalik o'z vaqtida topishi va ularning sodir bo'lish sababini to'g'ri aniqlashiga ko'p narsa bog'liqdir, bu xatolarni tuzatish metodikasi ham to'g'aligicha ana shunga bog'liqdir. O'qituvchi o'quvchining xatosi nimada ekanligini aytishi, unga bu xatoni tuzatishda yordam berishi lozim.

Ish amaliyotida ko'pincha o'qituvchining shunday tanbehlarini uchratish mumkin: ifodali o'qi, sen ifodali o'qimading, buning uchun senga «4» qo'yaman; sen she'rni yaxshi yodlabsan, lekin ifodali o'qimading, mayli senga «5»

qo'yaqolay. Shunday qilib, o'qituvchining o'zlari bunday hollarda ifodali o'qishni talab qilmay qo'yadilar.

Tabiiyki, o'quvchilar ifodali o'qish talablariga yaxshi javob berishning tamomila nomajburiy bir shart sifatida qaray boshlaydilar, bu esa, shubhasiz, ta'lim va tarbiya sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ayrim sinflarda shunday hollar ham uchraydi: O'quvchi ifodali o'qimaydi, o'qituvchi unga bir-ikki marta tanbeh beradi. O'quvchi esa ifodasiz o'qishni davom ettiradi. O'qituvchi esa bunga ko'nikib qolib, o'quvchining noto'g'ri o'qishga boshqa e'tibor bermay qo'yadi. Boshqa tomondan ayrim o'qituvchilar, ifodali o'qish mutlaqo majbur emas deb o'ylab, butun e'tiborini so'zlarni to'g'ri talaffuz etish malakalarini hosil qilishga qaratadilar. Bunday o'qituvchilar ifodali o'qishga o'rgatish vazifasini o'quvchilarga to'g'ri adabiy talaffuz qilish va ravon o'qish malakasini egallatish bilan almashtiradilar. Maktablardagi ilg'or o'qituvchilarning boy tajribasi bunday qarashlarni rad etadi: ifodali o'qish ustida ishlash o'quvchilarga qo'shimcha qiyinchilik tug'dirmaydi, aksincha, bolalarning o'rganiladigan asariga qiziqishini oshiradi, nutq madaniyatining o'sishiga va hatto lozim bo'lsa, talaffuzdagi xatolarni bartaraf etishga imkon beradi. Yuqorida ta'kidlanganidek, ifodali o'qish asoslari boshlang'ich sinflarda hosil qilinadi, butun keyingi ishlarning muvaffaqiyati ham asosan ana shunga bog'liq bo'ladi.

Umumta'lim maktablarning 5- sinfi uchun chiqarilgan adabiyot darsligida o'quvchilarda ifodali o'qish malakalarini o'stirish uchun juda yaxshi materiallar: ko'pgina, she'rlar, masallar, ertaklar bor. Yuqori sinf o'qituvchisi ifodali o'qishga o'rgatish sohasida samarali muvaffaqiyatli ishlab kelmoqda. O'qituvchining o'zi g'oyat emotsional, ifodali o'qiydi, uning o'qishi o'quvchilarga juda yaxshi namuna bo'lish kerak. Chunki uning o'qishini bolalar eshitib, savollar yordamida hech bir qiynalmasdan ertak va masallarda ishtirok etuvchilarning xarakterlarini tushunib olishi zarur.

O'qiladigan matn to'g'risida o'z taassurotlarini va fikrlarini dadil, ishonch bilan bayon etadilar. O'qituvchi darslarida to'g'ri talaffuz qildirishga va ifodali o'qishga doir ishlar muvaffaqiyatli ravishda birga qo'shib olib boriladi, ular bir-

birini to'ldiradi, va bir-biriga imkon yaratadi. O'qituvchi g'oyat turli-tuman matnlarni o'tayotgan vaqtda ularning bolalar tomonidan emotsional idrok qilinishiga, ishtirok etuvchilar hatti harakatlarining chuqur tushunishiga va bu xatti-harakatlar to'g'risida fikr yuritishga erishiladi, bunda shu bilan birga pauzalar, ohanglar ustida ishlashni ham unutmashligi darkor. Uning darslarida rollarga bo'lib o'qish, ayniqsa, muvaffaqiyatli o'tadi. Boshlang'ch sinf o'qituvchisining o'quvchilarni ifodali o'qish vositasi bilan estetik tarbiyalashga doir jiddiy ishi yuqori sinflarda bu vazifani hal etishni ancha engillashtiradi va o'quvchilarning estetik idroki, mustaqil fikrlashning yanada chuqurroq taraqqiy etishiga imkon beradi.

Ifodali o'qishda o'quvchilarda uchraydigan xatolarni bartarf etish uchun, maktab sharoitlarida birinchi navbatda, ifodali o'qishning uch elementiga: asarning g'oyaviy-emotsional mazmunini echishda katta rol o'ynaydigan pauzga, mantiqiy urg'uga va ohanga alohida etbor berilishi shart. Biz o'quvchilarga dastlabki kunlaridanoq bolalarni pauzadan nutqning ifodalilik vositasi sifatida foydalanishga o'rgatishimiz lozim. «Pauza nutqimizning eng muhim elementi va uning asosiy vositalaridan biridir». Tinish belgilari ma'lum darajada pauzaning orientiri bo'lishi mumkin.

Agar maktablarning boshlanqich sinflarida faqat tinish belgilaridangina pauza qo'llanadigan bo'lsa, V sinfdan boshlab esa o'qituvchi, bolalarni shunday matnlar bilan tanishtira boshlaydiki, ularning tinish belgilarining yo'qligiga qaramasdan, ma'noli pauzalarga rioya qilish kerak bo'ladi.

O'quvchilarni pauza qilishga o'rgatish vaqtida, birinchi navbatda, ularda o'zicha bemaqsad pauza qilish odatini yo'qotish kerak. Buning uchun o'qituvchi amaliy ko'rsatish yo'li bilan o'quvchilarni nuqta, tire, so'roq va undov belgilaridan keyin davomli pauza, vergul, ikki nuqtadan keyin esa qisqa pauza qilish bilan tanishtiradi. Bunda darhol tinish belgilardan keyin pauza qilish kerakli o'qib mashq qildirish orqali mustahkamlanadi. Bunday mashqlarga bir qancha darslarda loqal 5-7 minut sarflanadi, lekin bunday malakalar mustahkamlanib qolishi uchun

bunga o'xshash mashqlar davomida mustaqil o'tkazib turish foydadan xoli bo'lmaydi.

Mantiqiy pauzalarga rioya qilishga o'rgatish ancha qiyindir, chunki ular hech qanday tinish belgilari bilan ko'rsatilmaydi, balki bayon etish ma'nosida anglashiladi. O'quvchilar o'qiladigan matn ma'nosini yaxshi anglab olganlari taqdirdagina bu vazifaning uddasidan chiqa oladilar. Matnlardan tanlab olingan misollar asosida o'quvchilarni mantiqiy pauza qilishga o'rgatish vaqtida dastlab o'qituvchining o'zi matnni yaxshilab o'qib berishi va o'quvchilarga satrlarni nima uchun shunday qilib o'qiganligini tushuntirishi lozim.

O'qituvchi mantiqiy pauza qo'yishning bir-necha hollarini ko'rsatib, o'quvchilarda boshqa misollarda mantiqiy pauza qo'yishning sababalarini tushuntirib berishni topshiradi. Darslikdagi ayrim satrlarning mazmunini anglab olishga qaratilgan topshiriqlar bu mashqning muvaqqiyatli bajarilishiga yaxshiroq yordam beradi.

Maktablarning 5-sinfida izohli o'qish darslarida ikki maqsad nazarda tutiladi.

1. O'quvchilarning demokratik ruhda tarbiyalash, ularda yangi insonga, demokratik jamiyat quruvchi kishiga xos bo'lgan fazilatlarni tarbiyalash.

2. O'quvchilarga o'zbek tilini amaliy va ularning og'zaki, yozma nutqini o'stirish va mustaqil fikrlashga o'rgatish.

O'zbek tilini amaliy o'rgatish vazifasining g'oyat muhimligini tushungan holda shuni ham unutmaslik kerakki, adabiyot darslarida o'quvchilar badiiy asarlarni o'qiydilar, binobarin, o'zbek tilini amaliy jihatdan egallash asarlarning jonli obrazlarini mutlaqo xirallashtirmaslikligi, adabiyot darslarini kambag'allashtirmasligi, o'quvchilarning o'qiladigan asarlarini chuqur tushunishlariga, bolalarni kitobga muxabbat ruhida tarbiyalash mustaqil fikrlash paydo bo'lishiga to'sqinlik qilmaslik lozim, chunki bu sifatlar asarning shakli va mazmunini haqqoniy baholash, o'zining unga bo'lgan munosabatini bayon etish qobiliyatidan iboratdir.

UCHINCHI BOB

BESHINCHI SINFDAN O‘QUVCHILARNI IFODALI O‘QISHGA O‘RGATISHDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNING O‘RNI

Sinfdan tashqari mashg‘ulotlar anjumani, ifodali o‘qish to‘garaklari, adabiy drammatik disputlar, bahslar va h. shaklida yo‘lga qo‘yiladi. O‘qituvchilar mavjud sinfdan tashqari ish shakllaridan muvaffaqiyatli foydalanib, o‘quvchilarning faolligini tarbiyalaydilar, ularning qobiliyatini o‘stiradilar, bolalarda his-tuyg‘ularni uyg‘otadilar. Sinfdan tashqi mashg‘ulotlar o‘quvchilarga o‘zlarini qiziqtirgan hayotiy masalalar to‘g‘risida gapirib berishga, o‘z tuyg‘ulari, fikr-mulohazalari va kechinmalarini bayon etishga keng imkoniyatlar beradi, yuksak ahloqiy fazilatlarning tarbiyalanishiga, dunyoqarashining shakllanishiga, bilimlarining boyishiga imkoniyat yaratadi. Afsuski, ifodali o‘qish metodikasiga oid adabiyotlarda hanuzgacha etarli e‘tibor berilmasdan, ilg‘or o‘qituvchilarning tajribalari kam yoritilib kelinmoqda.

O‘qituvchi darsda ifodali o‘qish malakalarini hosil qilish uchun faqat bir necha minutgina vaqt ajrata oladi, bu tamomila etarli emasdir. Ifodali o‘qishga o‘rgatish juda qattiq, mashaqatli ishlashni talab qiladigan uzoq va murakkab jarayondir. Binobarin, faqat to‘garak ishigina o‘qituvchiga ifodali o‘qish masalalariga etarli darajada e‘tibor berishga imkon beradi. O‘qituvchi darslikda berilgan qisqa hikoyalar materiali asosida o‘quvchilarni asarning asosiy mavzuni aniqlashga o‘rgatishda, qahramon xarakterining o‘sib borishini kuzatishga o‘rgatishda ko‘pincha qiynaladi. Faqat to‘garak mashg‘ulotlaridagina asar ustida ishlash mumkin bo‘lib, bu ish qahramonlar xarakterining tarkib topishini

kuzatilgan, uning biror hatti-harakatining psixologik asosini tushunishga, o'z navbatida asarni ijodiy idrok etishga imkon tug'diradi.

Ifodali o'qish to'garagi oldiga quyidagi vazifalar qo'yiladi:

1. O'quvchilarni ifodali o'qish texnikasiga: to'xtam (pauza), mantiqiy urg'u qo'yishga, ohangga o'rgatish.
2. O'quvchilarning ijodiy tafakkurini o'stirish, ularni o'z ongida o'rganiladigan asardagi tabiat manzarasi, obrazlarni qayta jonlantirishga va shu xayolda jonlantirilgan tasavvurlarni og'zaki bayon etishga o'rgatish.

V sinfda ifodali o'qishning oddiy malakalarini egallamagan o'quvchilar yig'ilgani uchun dastlabki besh mashg'ulot eng kerakli narsani bilishga - to'xtam, mantiqiy urg'u, ohang bilan tanishtirishga bag'ishlanadi. Shu maqsadda, mazmuni va leksikasi jihatdan o'quvchilarga tushunarli bo'lgan, his - tuyg'u uyg'otadigan kichik parchalar, matnlar tanlanadi. Ish quyidagi tartibda olib boriladi; o'qituvchining ifodali o'qishi; parcha yoki matn mazmunini birgalikda tahlil qilish; o'qituvchining mantiqiy urqu, to'qtam, urqu va ohang haqidagi ma'lumotlarni bayon etishi va matndan olingan misollarda ularni to'g'ri qo'yishni o'rgatish; o'quvchilarning matnni ifodali o'qishi va to'xtam, mantiqiy urqu hamda ohangning qo'yilishini tushuntirib borish.

Ishlash uchun sinfdan tashqari o'qish uchun rejalashtirilgan matnlar olinadi.

Har bir o'quvchining oldida matn bo'ladi. Birinchi navbatda Oybekning «Bolalik» qissasidan foydalanildi. Asosan dialog shaklida yozilgan bu parcha belgilangan maqsadga erishish uchun katta imkoniyatlar beradi. Dastlab o'qituvchi matnni o'quvchilarga ifodali qilib o'qib beradi. O'qish vaqtida hikoyaning g'oyasini ochadi, shaxsiy namunasi orqali birinchi bo'lib ifodali o'qishga o'rgatadi. Shundan keyin o'quvchilar bir qancha savollarga javob qaytaradilar.

O'qituvchi: «Birdan baland jiyron otda uzun mo'ylovli, katta saqolli, quyuq qoshlariga qadar bostirib papax kiygan, qilich yonida, to'pponcha belida mirshab kelib qoldi», - degan gapda mirshabning tashqi ko'rinishi qanday tasvirlaganini o'quvchi so'zlar bilan ta'kidlaydi.

Komil ismli o'quvchi. Mirshabning jiyron ot mingan uzun mo'ylovli, katta saqolli, bostirib papax kiygan, yonida qilich, belida to'pponcha osgan odam ekanini o'ylab o'tirmasdan tasvirlaydi.

O'qituvchi. Uning xotini ora-sira buvim oldiga hirillab kirib hasrat qilar: «Mana , ko'rdingizmi, hamma eri shish, momataloq, zolim yana do'pposladi», deb yig'laganiga qotib qolardim. Buvim uni aldab: «qo'y yig'lama, sabr qil, bolam, ehtimol Tangrim insof bersa, la'natiga aql kirib qolar, yorug'likka chiqarsan», tasalli berar edi. Ana mirshab keldi deganda butun mahalla-ko'y qotib qolar edi.

«Mahalla -ko'y qotib qolar edi» gapidan uning zolim va takabburligi ko'rinib turardi. Buning uchun nima qilish kerakligini ayting.

Salima ismli o'quvchi. O'qish paytida «Mahalla-ko'y» so'ziga urg'u qo'yish zarurligini aytadi. «Mahalla -ko'y qotib qolar edi» gapini xitob ohangida o'qish kerak.

O'qituvchi . Mirshab shartta otini oldimda to'xtatdi: -Xo'sh, bola, ko'chani changg'itib yurasan, ot hurkib ketdi-ku,-dedi jahl bilan. Birdan qo'rqib, qaltirab ketdim. Bola nima uchun qo'rqib ketdi?

Zamira ismli o'quvchi. Birdan qo'rqib, qaltirab ketdim. -Assalom!- dedim shoshib. - O'ynab // yurgan edim.

Mirshab // ko'zlarini ola-qula qilib, qamchini bir siltadi.

1. O'quvchilar Vatanimiz o'tmishiga doir bu parcha orqali buyuk ajdodlarimizdan kimlarning hayoti va ishlari bilan tanishdingiz?

2. O'qigan parchangiz asosida Vatanimizning o'tmishi bilan hozirgi davrini taqqoslang.

3. Vatanimizdagi qaysi mahalla, shahar (qishloq) tarixini bilasiz? kabi savollar berish orqali ularning hikoyaning mazmunini yaxshi tushunganliklarini bilib olamiz.

Boshqa mashg'ulotda o'qituvchi o'quvchilarga mantiqiy urg'uning ma'nosini tushuntiradi va aniq misollarda uning qo'yilishini ko'rsatib, o'quvchilarga o'qiladigan matnni e'tibor bilan tinglashni va mantiqiy urg'u tushgan so'zlarni qalam bilan chizib chiqishni topshiradi.

Bir vaqt yo'lning chap tomonida qandaydir sharpa sezilganday bo'ldi. Durustroq qarasam, mendan yuz qadamcha narida ikkita kulrang jonivor turibdi. Men avval ularni it deb o'yladim. Shu atrofda yoyilib yurgan qo'y qo'rasi bordir deb, yon-verimga alangladim. Lekin ko'z ilg'aydigan joyda bironta qo'y yoki poda ko'rinmas edi. Biri cho'nqoyib olgan, ikkinchisi tikka turgan va meni sergaklanib kuzatayotgan haligi kulrang jonivorlar it emas edi. Men ularning bo'ri ekanini tushundim-u, etim junjikib ketdi. Bir lahza o'zimni yo'qotib qo'ydim. Keyin sal hushimni yig'ishtirib qarasam, oyoqlarim go'yo o'zidan-o'zi yurib ketayapti. To'xtashga ham, jadallashga ham, avzoyimni o'zgartirishga ham, hatto bo'rilarga yana bir qarashga ham jur'at yo'q. To'g'riga qarab avvalgiday yurib ketayapman-u, butun vujudim bilan bo'rilar tomonga quloq solaman. Menga qarab kelishsa, shitiri eshitiladi-ku, deyman («Xatarli uchrashuv» Pirimqul Qodirov).

P.Qodirovning «Xatarli uchrashuv» hikoyasidan olingan parchalar o'quvchilarga tovush ohangidan mantiqiy urg'uni belgilashni o'rganishga imkon berdi. Shundan keyin o'quvchilar tagiga chizilgan so'zlarni ovozlari bilan ajratgan holda o'qib chiqdilar.

O'qish texnikasiga doir mashqlar o'quvchilarni o'qituvchi tomonidan o'qiladigan matnni o'ylab, e'tibor bilan idrok etishga, uni ongli ravishda qayta hikoya qilib berishga olib keldi, ifodali o'qish jarayonida matnni to'g'ri idrok etish ko'nikmasining hosil bo'lishiga ko'p darajada yordam berdi. Ifodali o'qilgan matn o'quvchilarning ijodiy tafakkurini qo'zg'atar, ularda ravshan tasavvurlar hosil qilar ediki, bu o'quvchilarni estetik ruhda tarbiyalash uchun, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etadi.

Sinfdan tashqari ifodali o'qish V sinf o'quvchilarining umumiy madaniy yuksalishiga, ularda vatanparvarlik, insonparvarlik, do'stlik, o'z hatti - harakati uchun mas'uliyat hissini tarbiyalashga imkon yaratadi.

Ifodali o'qish to'garagining butun ishlari davomida o'quvchilarni kuzatib borish shunday xulosa chiqarish imkonini beradi: to'garak ishi V sinf o'quvchilarining intellektual va estetik o'sishiga va aniq so'zga qiziqishini oshiradi, o'z nutqini kuzatib borishga o'rganadilar. To'garak mashg'ulotlari

o'quvchilarning adabiy o'qish yuzasidan o'zlashtirishlarining yuqori bo'lishiga garov bo'ladi, ularning nutqini o'stiradi, luqat boyligini oshiradi, ona tili va adabiyoti faniga bo'lgan muxabbatini tug'diradi.

Sinfdan tashqari o'qish ta'lim tarbiya jarayonining asosiy qismlaridan hisoblaniladi. V-Y1 sinflarda, asosan, bolalar adabiyotiga oid asarlar o'qitiladi. Bunday mashqulotlarni dars jarayonidagina emas, sinfdan tashqari vaqtda ham davom ettirish mumkin.

Sinfdan tashqari mashqulot, sinfdagidek, dars shaklida emas, balki suhbat ertalik, to'garak, tanlov, mustaqil o'qish, ifodali o'qish kabi turli ko'rinishlarda amalga oshiriladi. Ammo o'qish talablaridagi talablar asosida, sinfdagi dars mashg'ulotlari bilan bog'liq holda o'quvchilar bilimni kengaytirish, o'qish ko'nikma va malakalarini o'stirish maqsadida individual va guruh tarzda olib boriladi.

Sinfdan tashqari ifodali o'qish uchun o'zbek xalq og'zaki ijodi materiallari, o'zbek bolalar yozuvchilari asarlari va O'zbekiston tabiati manzaralari aks etgan asarlar asos qilib olinadi. Shu maqsad uchun biz materiallarni tanlashda V sinf o'quvchilarining bilim saviyasi, qiziqishga mos bo'lishini hamda bu materiallarning badiiy yuksak bo'lishini, g'oyaviy - estetik va ahloqiy tarbiya berishdagi ahamitlilikini e'tiborga olish lozim.

Ulardan foydalanishda o'qituvchi qaysi biridan qaysi sinfdan foydalanish, mustaqil o'qishga qay birini tavsiya etish, ularni qanchalik ifodali o'qiyotganiga rahbarlik qilishni o'zi hal etadi. Lekin biz istardikki, har bir materialdan o'quvchi foydalanganda o'qituvchi o'sha matnga o'quvchining munosabat bildirishi, tegishli xulosa chiqarishi, mustaqil fikrlashi, o'z taassurotlarini og'zaki va yozma shakllarda ifodalay olishlariga alohida e'tibor bersalar maqsadga erishgan bo'ladi.

3.1. SINFDAN TASHQI MASHQULOTLAR TURLARI

Ifodali o'qish to'garaklari, adabiy dramatik disputlar, diskusiyalar va hakoza shaklida yo'lga qo'yiladi, o'qituvchilar mavjud sinfdan tashqi ish

shakllaridan muvaffaqiyatli foydalanib, o'quvchilarning faolligini oshiradilar, ularning qobiliyatini o'stiradilar, bolalarda go'zalikka muxabbat uyqotadilar. Sinfidan tashqi mashqulotlar o'quvchilar o'zlarini qiziqtirgan hayotiy masalalar to'g'risida gapirib berishga, o'z tuyg'ulari, fikrlari va kechinmalarini bayon etishga keng imkoniyatlar beradi, yuksak axloqiy fazilatlarning tarbiyalanishiga, ilmiy dunyoqarashning hosil bo'lishiga, bilimlarning boyishiga imkon yaratadi. O'zbek yozuvchilari va shoirlari, xalq oqzaki ijodi materiallaridan iborat quyidagi matnlar «G'uncha», «Gulxan», «Bilimdon» jurnallari va boshqa turli manbalardan tanlab olingani ma'qul. Ulardan mustaqil, ijodiy fikrlash, ifodali o'qish uchun tavsiya etamiz:

Shirin uyqu (O'zbek xalq ertagi).

Bir odamning uchta o'g'li bor ekan. Shu odam o'layotganida bolalariga: «Uyquni shirin qilib uxlang, ovqatni shirin qilib eng» deb vasiyat qilib o'libdi. Bu gapni ikkita katta o'g'il bir tushinibdi. Kichik o'g'il esa, undan boshqacha tushinibdi. Ikkita katta akasi erlarga suv sepib, chorpoyani qurib, katta ko'rpani to'shlab kayf qilib «uyquni shirin qilish, shunday bo'ladida deb yotaveribdi. Keyin ust-ustiga shirin taomlarni eb «ovqatni shirin qilib eyish mana bunaqa bo'ladi» deb yuraveribdi. U yoqqa ag'nab, bu yoqqa ag'nab, yota-yota ovqatlari singmay, egan ovqatining ham, uxlagan uyqusining ham mazasini bilmabdi. Axir eyishga ovqatlari qolmay kambag'al bo'lib qolishibdi».

Kichkinasi ishlab-ishlab kelib quruq egan noni ham shirin, ichgan choyi undan shirin, uxlasa uyqusi ham shirin bo'lar emish. Shunday qilib, uning borgan sari davlati ziyoda bo'lib, uyqusi shirin, ovqati mazali bo'lib boravergan ekan. Qani ayting-chi ota vasiyatini qaysi o'g'li to'g'ri tushuna olgan ekan?

“Tan sihatlik - tuman boylik” (O'zbek xalq maqoli)

3.2. TA'LIM JARAYONIDA ESTETIK IDROKKA TAYANISH

O'quvchilar bilimini mustahkamlash va chuqurlashtirish uchungina zarur bo'lib qolmasdan, balki estetik his-tuyg'u juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ham egadir.

O'qiladigan asar o'quvchilar tomonidan qanchalik chuqur va to'g'ri idrok etilsa, uning tarbiyaviy ta'siri ham shunchalik kuchli bo'ladi. Matnni ifodali o'qish badiiy asarning bolalarga emotsional ta'sirini oshirishning, ular his-tuyg'usining, o'qishga muhabbatini takomillashtirishning eng muhim vositalaridan biridir. Ifodali o'qish ham asarning g'oyaviy-mazmunini anglab olish, ham uning badiiy jihatdan o'ziga xosligini tushunish ham undan estetik zavq olishdir.

«Ifodali o'qish o'quvchi ishida ma'naviy estetik tarbiyaning g'oyat ta'sirli vositalardan biri sifatida eng katta o'rinni egallashi lozim». Matnni o'rganish ifodali o'qishgina yordam berib qolmasdan, balki ifodali o'qish ham, o'z navbatida matnni chuqur anglashga imkon beradi. Ifodali o'qish matnni tahlil qilishning eng faol usullaridan biridir.

Maktablarning 5- sinfida ifodali o'qish vazifasi turli tumandir, asarning umumiy mazmunini va g'oyaviy mohiyatini bayon etish o'qishda uning emotsional tomonini, ya'ni unda ifodalangan his-tuyg'u, kayfiyat kechinmani aks ettirish, asarning badiiy qiymatini, shakli kompozitsiyasi va tasviriyl vositalarining xususiyatlarini ta'kidlash.

O'quvchilarda to'g'ri ifodali o'qish malakalarini hosil qilish bevosita o'qituvchining badiiy asarning asosiy fikrini ochib berish, tushunarli holda matnni tahlil qilish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. O'qituvchi ifodali o'qishga tayyorlanayotganda dastavval asarni e'tbor bilan o'rganib chiqishi, yozuvchi tomonidan tasvirlangan manzaralarni, qahramonlarning ichki kechinmalarini fikran tasavvur qilishi, ularning hatti-harakatlarini baholashi, asarni mantiqiy grammatik tuzilishi jihatidan tahlil qilib chiqishi lozim. Puxta tayyorgarlik o'rganiladigan asarni o'quvchilarga ifodali o'qib berishga, o'zi his etgan barcha narsani o'quvchilar ongiga singdirishga va shu bilan o'quvchilarni ifodali o'qishga tayorlashga imkon beradi.

O'qituvchining ifodali o'qishi matnning dastlabki tahlili bo'lib, bu tahlil bundan keyin o'quvchilar oldiga qo'ygan savollar maxsus topshiriqlar yordamida chuqurlashtiriladi. O'quvchilarning ifodali o'qishi esa, o'rganilayotgan asarning ular tomonidan qanchalik tushunganliklarini tekshirish bo'ladi. Ma'lumki, matnni

ifodali bayon qilish uchun o'qish texnikasini egallay bilmoq kerak, bunga esa, bolalarni maxsus mashqlar bajartirish yo'li bilan erishiladi. Shunday qilib, o'qituvchi o'zining ifodali o'qishi bilan asarning asosiy mazmunini, mantiqiy tuzilishini, yozuvchi tasvirlagan har bir manzaraning go'zalligini o'quvchilarga etkazadi.

Maktablarda o'qituvchining ifodali qilib o'qishi alohida ahamiyatga ega, chunki o'quvchilarning lug'aviy-frazeologik zopasining kambag'alligi asarni birinchi marta tahlil qilayotganda uning g'oyaviy mazmunini, badiiy tasvirning go'zalligini tushunib olishlarida qiyinchilik tug'diradi.

O'qituvchining ifodali o'qishi o'quvchi uchun namuna hisoblanadi. Boshlanqich sinflarda o'qituvchining namunali o'qishi o'quvchilarda ifodali o'qish malakalari tarkib toptirishning eng muhim yo'llaridan biridir.

O'qituvchi shaxsiy namunasi vositasida asarning poetik go'zalligini his qilishga yordam beradi. 5- sinfda o'quvchilarning ifodali o'qishi adabiy asarlarni o'rganishning faol metodidir. O'quvchilar ifodali o'qishga tayyorlanayotganda asarning g'oyaviy mazmunini, badiiy vositalarini tahlil qiladilar.

Ifodali o'qish ikki qismdan:

a) to'g'ri talaffuz qilishdan;

b) o'qiyotganda asardagi his-tuyg'u, kayfiyat va fikrlarni ifodalay olishdan iborat bo'ladi.

Beshinchi sinflarda ifodali o'qishga o'rgatishning o'ziga xos tomoni shundaki, har qanday mashqdan oldin o'quvchilarga to'g'ri va aniq talaffuz qilish malakalarini singdirish ishlari olib borishi kerak.

Odatda bu ishlar o'quvchilarning ifodali o'qishi oldidan o'tkaziladi. Beshinchi sinfida ifodali o'qishni yo'lga qo'yishning juda oddiy vositalarini ko'rib chiqamiz, chunki, odatda, boshlang'ich sinfga deyarli ifodali o'qish qoidalari to'g'risida umuman tushunchaga ega bo'lmagan o'quvchilar bo'ladi. YUqori sinfda Ifodali o'qishga o'rgatish rejali, sistemali va bosqichma-bosqich murakkablashib boradigan bo'lmog'i lozim.

Maktab o'quvchilariga har bir darsda ifodali o'qishni o'rgatib bormog'i lozim, 5-sinf o'quvchilarning o'qish texnikasi bo'shlig'ini va xato talaffuz etishini bahona qilib, ifodali o'qish malakalari hosil qilishga doir ishlarni paysalga solish yaramaydi. O'quvchilar tomonidan o'qiladigan har qanday asar ifodali bo'lishi kerak. O'quvchilar asarning mazmunini, g'oyasini, obrazlarning xarakterli belgilarini bayon etganlarida ma'lum tempga, gap turlariga muvofiq intonatsiya (ohang)ga rioya qilishlari, tinish belgilari kelgan o'rinlarida to'xtamlari, keraksiz joylarda to'xtamasliklari, mantiqiy urg'ularni ajratishlari lozim.

Ifodali o'qishning mustahkam ko'nikmalari hosil qilish ishi uzoq davom etadigan, murakkab va har tomonlama jarayondir; shuning uchun dastlabki ifodali o'qish darslaridan, bir qancha mashqlardan keyinroq barcha o'quvchilar darhol o'rganiladigan asarni yaxshi o'qib ketadilar, deb umid qilmaslik kerak.

Lekin to'g'ri yo'lga qo'yilgan mashqlar asta-sekin istalgan natijalarga olib keladi.

UMUMIY XULOSALAR

Ifodali o'qish mashg'ulotlari badiiy asarni tahlil qilishga, yozuvchi yoki shoirning g'oyaviy-badiiy niyatini to'g'ri tushunishga o'rgatish bilan bir qatorda o'quvchi- talaba yoshlarni nasriy yoki she'riy asarlarning jozibador ohanglaridan zavqlanishga, ezgu va go'zal tuyg'ularning qaror topishiga ham yordam beradi. Zero, ifodali o'qish san'atining mohiyati ham insonda hayotga estetik munosabatda bo'lish hissini tarbiyalash va o'stirish myammosi bilan bog'liqdir.

Urg'u ifodali o'qishning asosiy vositalaridan biri bo'lib, ta'kidlash alohida e'tibor qaratish uchun xizmat qiladi.

Urgʻu soʻzlarni toʻgʻri talaffuz etishga, maʼnoni toʻgʻri va toʻla anglashga yordam beradi. Urgʻu ilmiy adabiyotlarda leksik urgʻu, dinamik urgʻu, ritmik urgʻu, mantiqiy urgʻu, psixologik urgʻu kabi bir necha turga boʻlinib oʻrganiladi.

Agar oʻquvchi gapni notoʻgʻri oʻqisa, unga yangi savol berish lozim. Savol-javob metodi unga oldiga qoʻyilgan vazifaning uddasidan chiqishga yordam beradi. Badiiy asarda ohang orqali qahramonlarning turli kayfiyati, ichki kechinmalari ifodalanadi. Ayniqsa, poetik asarlar ritmik ohangdorligining tinglovchiga etkazilishida ohang katta va muhim ahamiyat kasb etadi.

Ohang nutqning ritmik va ohangdor tuzilishidir. Ohang keng tushuncha boʻlib, nutq ohangi, temp, pauza, urgʻu kabi hodisalarni oʻz ichiga oladi.

Soʻzlovchining maqsadini, turli his-tuygʻularini ifodalashda, turli emotsional holatlarni koʻrsatishda ohangning xizmati muhim. Shunga koʻra, u darak, soʻroq, undov ohangi kabi turlarga boʻlinadi.

YUqori sinflarda adabiyot va nutq oʻstirish dasturiga koʻra, 5- sinf oʻquvchilarini ifodali oʻqishga oʻrgatishda ifodali oʻqishning elementari vositalaridan boʻlgan:

1. Tinish belgilariga rioya qilish

2. Soʻzlar va gaplar orasidagi pauzaga rioya qilish

3. Logik urqusiga rioya qilish

4. Oʻqish tempiga (tezligiga) rioya qilish

5. Ohanga rioya qilish ovoz chiqarib oʻqishni mashq qilishdan iborat.

Dasturda toʻgʻri talaffuz etish malakalari hosil qilishga alohida ahamiyat berilgan, chunki ifodali oʻqishni toʻgʻri talaffuzsiz tasavvur qilib boʻlmaydi. Oʻquvchilarda toʻgʻri ifodali oʻqish malakalarini hosil qilish bevosita oʻqituvchining badiiy asarning asosiy fikrini ochib berish, tushunarli holda matnni tahlil qilish qobiliyatiga bogʻliq boʻladi. Ifodali oʻqish bilan qayta ijodiy hikoyalash bir-biriga juda yaqin turadi.

U tinglovchilarning asar mazmunini yaxshiroq tushunishlariga, undan taʼsirlanishlariga erishish uchun ifodali oʻqish vositalaridan biri boʻlgan ohangdan, mimika va imo ishoralardan foydalansa maqsadga muvofiq boʻladi.

Barmoq tizimidagi she'rlar vazning hosil qilishda turoqning asosiy komponentlardan biri ekanligi. She'rda turoqlar sonining bir va bir nechtdan iborat bo'lishi. Barmoq vaznidagi she'rlar ifodali o'qilganda ularning erkin va aruz vaznida bitilgan asarlarning o'qilishidan farq qilishi.

Nasriy she'r o'zbek mumtoz (klassik) adabiyotiga xos bo'lib, uning hozirgi zamon adabiyotida ham yangi shaklda davom etayotgani. Nasriy she'r namunalaridan o'qish. Alisher Navoiyning "Mahbubul qulub". A.Qodiriyning "Mehrobdan chayon". M.Ismoiliyning "Farg'ona tong otguncha", U.Umarbekovning "Bolgar qo'shiqlari" asarlaridai nasriy she'rda bitilgan o'rinlarini o'qish.

Romanda personajlar nutqining turli ko'rinishlari -monolog, diolog va voqyeani bayon etish usullari -chekinish, tavsif, tabiat tasviri (peyzaj) va boshqalarni ifodali o'qishning o'ziga xos jihatlari. Buning uchun asar ishtirokchilaridan har birining tabiatini, xulq-atvorini, madaniy-saviyasini, kishilar bilan o'zaro munosabatini, jamiyat hayotida tutgan o'rnini chuqur o'rganishning alohida ahamiyat kasb etishi.

Respublikamiz viloyatlaridagi, jumladan, Amudaryo tuman Xalq ta'limi bo'limiga qarashli 6-sonli maktabning 5-6-sinf adabiyot darslarida o'tkazilgan kuzatishlar to'la asosda, ko'pgina maktablarda ifodali o'qish etarli darajada olib borilmayapti, degan xulosa chiqarishga imkon beradi. O'qish darslarida o'quvchilarning talaffuzda ko'pgina xatolarga yo'l qo'yib, xom ifodasiz o'qiyotgani kuzatildi.

Boshqa tomondan ayrim o'qituvchilar, ifodali o'qish mutlaqo majbur emas deb o'ylab, butun e'tiborini so'zlarni to'g'ri talaffuz etish malakalarini hosil qilishga qaratadilar. Bunday o'qituvchilar ifodali o'qishga o'rgatish vazifasini o'quvchilarga to'g'ri adabiy talaffuz qilish va ravon o'qish malakasini egallatish bilan almashtiradilar.

Maktablardagi ilg'or o'qituvchilarning boy tajribasi bunday qarashlarni rad etadi: ifodali o'qish ustida ishlash o'quvchilarga qo'shimcha qiyinchilik tug'dirmaydi, aksincha, bolalarning o'rganiladigan asariga qiziqishini oshiradi,

nutq madaniyatining o'sishiga va hatto lozim bo'lsa, talaffuzdagi xatolarni bartaraf etishga imkon beradi.

Sinfdan tashqari mashqulot, sinfdagidek, dars shaklida emas, balki suhbat ertalik, to'garak, tanlov, mustaqil o'qish, ifodali o'qish kabi turli ko'rinishlarda amalga oshiriladi. Ammo o'qish talablaridagi talablar asosida, sinfdagi dars mashg'ulotlari bilan bog'liq holda o'quvchilar bilimini kengaytirish, o'qish ko'nikma va malakalarini o'stirish maqsadida individual va guruh tarzda olib boriladi.

. Masalni ifodali o'qish katta mahorat talab qiladi. Unda tulki-aldoqchi, bo'ri - ochko'z, chayon - tili zahar, ilon - makkor, to'tiqush - gapdon, bulbul g'azalxon va xushovoz kishilarga o'xshatiladi. Masallarda yashiringan o'tkir kinoya, voqealarning tez-tez o'rin almashib turishi uni bir matnda o'qishga halaqit beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. E.Begmatov "Notiqlikning nodir san'ati" Toshkent-1980 yil
2. Jalilov X. "Ifodali oqish" Toshkent-1976 yil.
3. Inomxojaev S. "Ifodaii o'qish asoslari" Toshkent-1982y
4. Karimov S. "badiiy matnning lisoniy alomatlari" Samarqand-1992 yil.
5. Karimov S. "O'zbek tilining badiiy uslubi", Samarqand-1992y.
6. Karimov S. "Badiiy uslub va tilning tasviriy iofda vositalari", Samarqand-1994 yil
7. Mirtojiev M., Maxmudov N., "Til va madaniyat" Tosh-1992 yil.
8. Mamajonov S. "Uslub jilolari", Toshkent-1972yil
9. Ma'rufev A. "paronimlar ro'yxati", Toshkent-1974 yil
10. Samadov K. "O'zbek tili uslublari", Toshkent-1991 yil.
11. Sodiqova M. "Nutq estetikasi" (Nutq odobi) Toshkent-1981

12. Umirqulov B. "Lektor nutqi va badiiy til" Toshkent-1981 y. (3.
- 13.O‘rinboev V., Soliev A. "Notiqlik mahorati" T.-1984 y.
- 14.Xojiev A. "O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati" T.-1984 yil
- 15.Xojiev A. "Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati" T.-1985yil
- 16.Xojaev L. "Lektor va so‘z san'ati" T.-1975 yil
17. Xojaev L. "Ifodaii oqish" T.-1976 yil
18. Qudratov T. "Nutq madaniyati asoslari" Toshkent-1993 yil
19. Ortiqov A., Ortiqov A. "Ifodaii o‘qish va nutq madaniyati" T.-2002 yil

MUNDARIJA:

KIRISH

BIRINCHI BOB

Beshinchi sinfda ifodali o'qishga o'rgatishning nazariy hamda amaliy ahamiyati

1.1. Ifodali o'qish tarixidan lavhalar

1.2. Fonetik akustika va uning ko'rinishlari

IKKINCHI BOB

Badiiy asar turlarini ifodali o'qish

2.1. Masalni ifodali o'qish

2.2. Nasriy asarlarni ifodali o'qish

2.3. Ertaklarni ifodali o'qish

2.4. Hikoyalarni ifodali o'qish

UCHINCHI BOB

Beshinchi sinfda o'quvchilarni ifodali o'qishga o'rgatishda sinfdan tashqari ishlarning o'rni

3.1. Sinfdan tashqarii mashg'ulotlarning turlari

X U L O S A

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti filologiya fakulteti

4 «b» kurs talabasi Ytshonova Bargiza Maxmydjonovnaning «5-sinf

o'quvchilarini ifodali o'qishga o'rgatish»

mavzusida yozilgan Bitiruv malakaviy ishi haqida

T A Q R I Z

Mustaqil Respublikamizning endilikda mustaqil fikrlaydigan iqtidorli o'z farzandlarini tarbiyalab etishtirish zarur bo'lib turibdi. CHindan ham, ona tili ta'limini o'qitishdan asosiy maqsad o'quvchilarni ifodali o'qishga o'rgatish muhimdir. Bola maktabga borgunga qadar hayot uchun zarur bo'lgan yuzlab, minglab so'zlarni o'rganadi. SHu nuqtai bazardan olib qaraganda mazkur mavzu shu kunning o'ta dolzarb muammosiga bag'ishlanganligi bilan xarakterlidir.

Tadqiqotning kirish qismida muammoning o'rganilishi, dolzarbligi, nazariy, amaliy ahamiyati, tarkibi bilan bo'g'liq fikr-mulohazalar xususida atroflicha bayon etilgan.

Bitiruv malakaviy ishning birinchi bobi **“Ifodali o'qish vositalari va undan foydalanishning**

nazariy-amaliy ahamiyati

«4-sinfda ifodali o'qishga o'rgatishning nazariy hamda amaliy ahamiyati» deb nomlanadi. Bunda 4-sinf o'quvchilari faoliyatida ifodali o'qish, uning maqsadiga ko'ra turlari, tarixi, nutq paydo bo'lishi bilan nutqiy faoliyatning yuzaga kelishi, «Avesto» ning yaratubchilari tomonidan xalq orasida adiblar sifatidagina emas, jonli so'z sehri bilan shug'ullanuvchi mutaxassis ekanliklarini bayon etib bergan. Birinchi bobning ikkinchi faslida ifodali o'qish jarayonida nutq vositalaridan foydalanish usullari, nutq vositalariga oid mashqlarni o'tkazish xususida atroflicha keng ma'lumot berilgan.

Malakaviy bitiruv ishining ikkinchi «Badiiy asar turlarini ifodali o'qish» bobida masalni ifodali o'qish, nosriy va nazmiy asarlarni, ertaklarni, hikoyalarni ifodal o'qish usullari bilan bog'liq muammolarga metodik jihatdan yondashilgan, nazariy ma'lumotlar keltiriladi. Ifodali o'qish tasnifiga ham keng o'rin beriladi .Asosan masalni, ertaklarni, hikoyalarni o'brazlarga ajratib ifodali o'qishning

metodik asoslariga oid tavsiyalaridan dars jarayonida foydalanish muhim ahamiyan kasb etadi.

Malakaviy bitiruv ishining uchinchi bobida «4- sinfda o'quvchilarni ifodali o'qishga o'rgatishda sinfdan tashqari ishlarning o'rni» deb nomlanib, bunda e'tibor sinfdan tashqari ish turlarini o'tkazishga qaratiladi. Hamda ifodali o'qish to'garagini tashkil etish bilan bog'liq muammolarga metodik jihatdan yondashilgan, nazariy ma'lumotlar keltiriladi va batafsil yoritilgan

Ish oxirida chiqarilgan qiqacha xulosa va fikr-mulohazalari ish mazmuniga mos keladi.

Payzullayeva Nazakat Gulimboyevnaning **«4- sinf o'quvchilarini ifodali o'qishga o'rgatish»** mavzusida yozilgan Bitiruv malakaviy ishida ayrim e'tirozli o'rinlar ham ko'zga tashlanadi:

- 1) barcha ishlarda bo'lganidek imlo xatolar uchraydi;
- 2) o'quvchilarni ifodali o'qishga o'rgatishda uchraydigan qiyinchliklarni bartaraf etish bilan bog'liq mashlqlarga ko'proq o'rin ajratilsa foydadan xoi bo'lmasdi.

Bunday juz'iy kamchiliklar har qanday ishda uchrashi mumkin bo'lib, ishning nazariy va amaliy ahamiyatini kamaytirmaydi. Bitiruv malakaviy ishning boblari izchil bayon etilgan, Ifodali o'qishga o'rgatishda uchraydigan qiyinchliklarni bartaf etish yo'llariga doir ko'pgina tavsiyalaridan ona tili dars jarayonida foydalanish zarur. Ishning bunday yutuqlari ko'p. SHuning uchun Payzullayeva Nazokat Gulimboyevnaning Bitiruv malakaviy ishini yuqori saviyada yozilgan va hozirgi davr talablariga to'la javob beradigan ishlar qatorida baholash ayni muddoa bo'ladi, deb o'ylayman.

A.O'razimbetov -

f.f.n., Qoraqalpoq tilshunosligi kafedrasii
dotsenti.

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim va jismoniy tarbiya ishlari fakultet 4 «v» kurs talabasi Payzullayeva Nazokat Gulimboyevnaning «**4- sinf o'quvchilarini ifodali o'qishga o'rgatish**» mavzusida yozilgan Bitiruv malakaviy ishiga ilmiy rahbari

XULOSASI

O'zbek badiiy adabiyoti tilini o'rganishda anchagina boy tajriba to'plangan. Tadqiqotchi Payzullayeva Nazokat Gulimboyevnaning Bitiruv malakaviy ishi ana shu boy tajribaga tayyangan holda maydonga kelgan.

Ish kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Bitiruv malakaviy ishning **Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi, maqsadi va vazifalari, «Ifodali» o'qish bilan bog'liq masalalar, fikr-mulohazalar, nazariy qarashlar, har xil tavsiyalarni tahlil qiladi.

Bitiruv malakaviy ishning birinchi bobi «4-sinfda ifodali o'qishga o'rgatishning nazariy hamda amaliy ahamiyati» deb nomlanadi. Bunda 4-sinf o'quvchilari faoliyatida ifodali o'qish, uning maqsadiga ko'ra turlari, tarixi, nutqiy faoliyatning yuzaga kelishi, birinchi bobning ikkinchi faslida esa, ifodali o'qish jarayonida nutq vositalaridan foydalanish usullari, nutq vositalariga oid mashqlarni o'tkazish atroflicha keng bayon etilgan

Tadqiqotning ikkinchi «Badiiy asar turlarini ifodali o'qish» bobida masalni ifodali o'qish, nosriy va nazmiy asarlarni, ertaklarni, hikoyalarni ifodal o'qish usullari bilan bog'liq muammolarga metodik jihatdan yondashilgan, nazariy ma'lumotlar keltiriladi. Ifodali o'qish tasnifiga keng to'xtaydi. Asosan masalni, ertaklarni, hikoyalarni o'brazlarga ajratib ifodali o'qishning metodik asoslari ishonchli yechimini topgan. Ifodali o'qishga oid mashg'lotlarni dars jarayonida

o'tkazish usullari haqida bayon etilgan fikr-mulohazalari, dalillari tahsinga loyiq. Undan dars jaroyonida foydalanish muhimdir.

Ishining uchinchi bobida sinfdan tashqari ish turlarini o'tkazishga e'tibor beradi. Bunda ifodali o'qish to'garalarning, sayohat tashkil etish usullari bilan bog'liq muammolarga metodik jihatdan yondashiladi. Har bir bob izchil bayon enilgan. Ish oxirida tegishli xulosa chiqariladi.

Qisqasi, Payzullayeva Nazokat Gulimboyevnaning **«4- sinf o'quvchilarini ifodali o'qishga o'rgatish»** mavzusida yozilgan Bitiruv malakaviy ishi to'liq yakunlangan ish sifatida ochiq himoyaga tavsiya etilishi maqsadga loyiq.

Ilmiy rahbar: YU.M.Ibragimov - f.f.d. professori.